جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2026-yil 21-avgust
№ 34 (138)
www.jadid.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

FAKT

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kichik va mikro gidro elektr stansiyalari tarmog‘ini rivojlantirishning navbatdagi chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.
- Samarqand shahriga Jahon hunarmandlar kengashi tomonidan “Butunjahon hunarmandlar shahri” maqomi berildi.
- Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, yanvar-iyun oylarida O‘zbekistonda havo transporti orqali 4,5 mln. nafar yo‘lovchi tashilgan.
- Taekvondo WT bo‘yicha kattalar o‘rtasidagi “8th World Taekwondo President’s Cup – Asia” musobaqasida Jasurbek Jaysunov 80 kilogramm vazn toifasida g‘olib bo‘ldi.

YETTIKUNLIK

“BIZ – 40 MILLIONLI XALQMIZ!”



Ming yillik tarix dalolatiga ko‘ra, qadim Turkiston zamini egalari bo‘lgan ulus dehqonchilik va chorvadan tashqari, savdo-sotiq, ishlab chiqarish sanoati bilan ham shuhratli bo‘lgan. Chunonchi, XVII asrda xon va muarrix Abulg‘oziy Bahodirxon Xurosonga jo‘nagan karvon hamda “o‘rusg‘a savdog‘a” ketgan “o‘n yetti kishi” haqida xabar beradi. 1804-yil “xorazmlik ikki yuz savdo kishisi ko‘pgina qimmatbaho mollar bilan katta karvonni tayyorladilar”, deb yozgan.

Arxiv hujjatlaridan ayon bo‘ladiki, Xorazm shaharlaridan qo‘shni davlatlarga “paxta va matodan tashqari qo‘y terilari, uzum mayizi, guruch, meshlar, tozalangan tola, ipak” va boshqa ashyolar olib borilganki, bu mahsulotlar bevosita va bilvosita sanoat taraqqiyoti samarasi hisoblanadi. Mirishkorlik, ziroatchilik, ko‘nchilik, zargarlik, chilangarlik, kulollik, kosiblik va ko‘plab tadbirkorlik amaliyoti, ma’lumki, millatimizga xos xususiyatdir. Mazkur xislatni mamlakat miqyosida rivojlantirishning tarixiy asosi hamda zamonaviy imkoniyatlari mavjud.

* * *

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xiva shahrida tadbirkorlar bilan o‘tkazgan VI ochiq muloqoti mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish tarixida navbatdagi muhim bosqichni belgilab berdi. Mamlakat bo‘ylab 25 mingga yaqin biznes vakillarini qamrab olgan ushbu anjuman hisobot yoki muloqotgina emas, balki davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi strategik ittifoq mustahkamlanganining amaliy in’ikosi bo‘ldi. Davlatimiz rahbarining nutqida erishilgan natijalar qatorida yaqin kelajakdagi strategik maqsadlar va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Besh yil oldin tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazish an’anasi yo‘lga qo‘yilganidan buyon biznes rivojiga to‘siq bo‘lgan minglab masalalarga yechim topildi. Muloqotda aytilganidek, bu davrda tadbirkorlik sohasini tartibga soluvchi 84 ta qonun, 861 ta farmon va qaror qabul qilingani, kredit portfeli 3 barobar oshib, 450 trillion so‘mga yetgani davlat siyosatining markazida aynan tadbirkor turganini ko‘rsatadi.

Xo‘sh, nima uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlikka va ularning huquq-manfaatlarini himoya qilishga bunchalik katta ahamiyat qaratyapti? Xivadagi muloqot mazmunidan kelib chiqib, ushbu savolga tahliliy javob topishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida eng muhim geodemografik omilni eslatib o‘tdi. “Biz – 40 millionli xalqmiz”. Demak, mazkur raqam ortida juda katta ijtimoiy mas’uliyat bor. Ayni paytda har yili mehnat bozoriga yuz minglab yoshlar kirib kelmoqda.

(Davomi 2-sahifada).

VATAN MANZUMASI



G‘ayrat MAJID

EY, QADIM XORAZM!

Men ham o‘qiganman Zardusht qissasin,
Unga ehtiyojim yo‘q bugun, biroq
Olam, senga aytsam ko‘nglim havasin,
Men Zamaxshariyga muhtojman ko‘proq.
Ixtiyor berilsa ko‘ngilga agar,
Hoy-u havaslari bilmagay hudud.
Kim bo‘lmoq istasa nafsga muzaffar,
Sizdan saboq lozim, Pahlavon Mahmud.
Haq sari yurmoqqa aylayman jazm,
Ey, qadim Xorazm, azim Xorazm.

Yechilgay har qanday jumboq, muammo,
Chiqmasang vijdonning amri, izmidan.
Ey, sen hisobini yo‘qotgan dunyo,
Dars olsang bo‘lardi Al-Xorazmiydan.
Insonni hamisha etgay mo‘tabar,
Tangrining ne’mati – aql-u tafakkur.
Buyuk Beruniyga tan berur bashar,
Avlodlar qalbida g‘urur va shukur.
Takror-takror dilga tashlayman razm,
Ey, qadim Xorazm, azim Xorazm.

Oshufta qalbimda olib yuribman,
Aziz bobolarning aziz ruhini.
Qo‘llaridan tortib ololmas dushman,
Najmiddin Kubroning tutgan tug‘ini.
Sulton Jaloliddin tortgan na’radan
Hayratga tushgandir Chingiz lashkari.
Tarixi, o‘tsa ham yillar oradan,
Ong-u shuurlardan ketmagay nari.
G‘olibdir sadoqat, shijoat, azm,
Ey, qadim Xorazm, azim Xorazm.

Yuragim jaranglar torlar torinda,
Rost, Buzruk, Navolar tinglaydi Feruz.
Ruhimning porlagan bu sharorinda,
Quyoshdan nasiba bordir shubhasiz.
Nursiz idroklarni chulg‘amish nurga,
Munisning bir munis so‘zlari – nusrat.
Ilkini uzatib Navoiy – pirga,
Ogoh bo‘l, hayqirar Ogahiy hazrat,
Sen haqda ne aytsam, shoh satr – nazm,
Ey, qadim Xorazm, azim Xorazm.

Boqib Ichon qal’a, Dishon qal’aga,
Ko‘ksimga joyladim qadim Xivani.
Bildim, quloq tutib so‘z, ashulaga,
Yofasdan meros bu qutlug‘ shevani.
Senga ko‘z tegmasin hech qachon o‘lkam,
Sen Gurlan, Hazorasp, Shovot, Urganchsan.
O‘tmishing, buguning, ertang ham ko‘rkam,
Vatanim bag‘rida bir durri ganjsan.
Sen borsan, ko‘nglimda mangu to‘y-bazm,
Ey, qadim Xorazm, azim Xorazm!

ISLOHOT

MILLIY MAGISTRAL



IQTISODIYOT “ARTERIYA”SI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 22-iyul kuni O‘rta Chirchiq tumanida Toshkent – Samarqand yo‘nalishidagi yangi muqobil avtomagistral qurilishiga tamal toshini qo‘yar ekan: “Bugun bu sohada tom ma’noda yangi davr boshlanmoqda”, deya ta’kidladi. Bu jumla tantanali marosim ruhiga mos so‘z aytishdan ko‘ra kattaroq mazmunga ega. Chunki O‘zbekistonda ilk bor eng yuqori toifadagi, harakat oqimi to‘liq boshqariladigan, olti tasmali avtomagistral barpo etilmoqda.

Ushbu yo‘l uzunligi 282 kilometr deb belgilangan. Amalda esa bu qariyb 2,2 milliard dollarlik butun boshli muhandislik tizimidir. Yo‘l Toshkentdan chiqib, Sirdaryo va Jizzax orqali Samarqandga yetib borguncha 13 ta tuman hududini kesib o‘tadi. Shu masofaning o‘zida daryo va jarlarga solinadigan 92 ta ko‘prik, harakat oqimlarini bir-biriga aralashtirmay o‘tkazadigan 28 inshoot, yer bag‘ridan o‘tadigan 60 ta tunnelli yo‘lak, alohida yer osti o‘tish joylari hamda suv inshootlari quriladi. Yo‘lning “badan”i odatdagi asfaltdan emas, og‘ir yuk va yuqori tezlikka chidamli monolit betondan bo‘ladi. Unda soatiga 150 kilometrgacha harakatlanish imkoni ko‘zlangan. Muddat 2030-yilgacha belgilangan. Muhandislarning hisobiga ko‘ra, yo‘l bir kecha-kunduzda 60 mingdan 80 mingtagacha avtomobil oqimini o‘tkaza oladi. Toshkentdan Samarqandga besh soatda emas, ikki yarim soatda yetib borishga imkon beradi. Bu ikki yarim soat yo‘lovchi uchun oilasiga va ishiga qaytarilgan vaqt, tadbirkor uchun aylanma mablag‘ning tezroq qaytishi, tashuvchi uchun qo‘shimcha reys, dehqon uchun mahsulotning bozorga sifatini yo‘qotmay yetib borishidir.

Ushbu avtomagistral yo‘q joydan paydo bo‘lgan shov-shuvli megaloyiha emas. U mahalla ko‘chasidan xalqaro yo‘lakkacha ko‘tarilgan siyosatning eng yuqori bosqichidir. Raqamlarni bir qatorga tersak, bu yo‘lning poydevori ancha oldin qo‘yila boshlagani ko‘rinadi. Respublikada 2017–2023-yillar oralig‘ida 65 ming kilometr yo‘l qurilib, ta’mirlandi. Qariyb uch ming mahallada ilk bor asfalt qoplamali yo‘l qilindi, yana ikki ming mahallaning tuproq ko‘chalariga shag‘al yotqizildi. 2026-yilda o‘n yillik ishlar sarhisob qilinganda, 78 trillion so‘m hisobiga turli darajada qurilgan yoki ta’mirlangan yo‘llar qamrovi 128 ming kilometrga yetgani oydinlashdi.

(Davomi 2-sahifada).

YOD ETIB



ADOLATLI *adib*

Prezidentimizning 2026-yil 28-maydagi “Mamlakatimizda madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan bir guruh marhum ijodkorlarni mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoni bilan O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovga “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berildi. 20-oktyabrda tavalludining 100 yilligi nishonlanuvchi adib xotirasiga ko‘rsatilgan ehtirom nafaqat oila a’zolari va shogirdlari, balki ko‘p ming sonli kitobsevarlarni to‘lqinlantirib yubordi.

O‘quvchilik davrimizda – o‘tgan asrning 60-yillarida mashhur kitoblardan biri Odil Yoqubovning “Muqaddas” qissasi edi. Esimda, bu asar avval alohida kitob holida nashr etildi, oradan bir-ikki yil o‘tib, “Tilla uzuk” asari bilan birga qayta chop etildi.

(5-sahifada o‘qing).

SAN’AT OLAMI

RASSOM FIKRLASHI KERAK

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi rahbari, O‘zbekiston xalq rassomi Akmal NUR bilan suhbat

– Akmal aka, bilamizki, ijodkor va olimlarga azaldan davlat va jamiyatning muhim bo‘g‘inlarida mas’ul vazifalar ishonib topshirilgan. Bu o‘rinda ularning masalaga o‘ziga xos yondashuvi hisobga olingan bo‘lsa, ehtimol. Garchi san’atkor mutlaq erkinlikka intilsada, el-yurt manfaati uchun zimmasiga og‘ir yuklarni ham oladi. Kamoliddin Behzodning Hirotdagi saltanat kutubxonasini boshqarishi, Piter Paul Rubensning beqiyos diplomatlik faoliyati so‘zimiz isboti. 14 yildan buyon rahbar lavozimida bo‘lgan Akmal Nur ijod va ish o‘rtasidagi “oltin o‘rtaliq”ni qanday saqlamoqda?

(Davomi 6-sahifada).

“BIZ – 40 MILLIONLI XALQMIZ!”

Boshlanishi 1-sahifada.

Davlat sektori buncha aholiga yagona ish beruvchi bo‘la olmaydi. Aholini uzoqqa yubormay, o‘z mahallasida daromadli ish bilan ta’minlashning yagona real va barqaror yo‘li – tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Xorazm tajribasi (viloyat iqtisodiyotining 72 foizi va eksportining 81 foizi kichik biznes tomonidan yaratilmoqda) buning isbotidir.

Joriy yilda yalpi ichki mahsulotni 180 milliard dollardan, eksportni 40 milliard dollardan oshirish kabi ulkan marralar qo‘yildi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun O‘zbekiston iqtisodiyoti xomashyo sotishdan to‘liq voz kechib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va yuqori texnologiyalarga asoslangan xizmatlar ko‘rsatishga o‘tishi kerak. Prezident tadbirkorlarga murojaat qilar ekan, ularni shunchaki ish o‘rni yaratish emas, balki yuqori daromadli ish o‘rinlarini ko‘paytirishga chaqirdi.

Mazkur masala nega muhim? Gap shundaki, ishchining maoshi yuqori bo‘lsa, uning xarid qobiliyati oshadi, bu esa o‘z navbatida ichki bozorni va boshqa tadbirkorlar faoliyatini rivojlantiradi. Yuqori daromadli ish o‘rni yuksak malakali kadr va zamonaviy texnologiya demakdir. O‘zbekiston mahsulotlari dunyo bozorida raqobatdosh bo‘lishi uchun qo‘shilgan qiymatni oshirish, xomashyoni chuqur qayta ishlab, uni brend darajasidagi tayyor mahsulotga aylantirish, tashqi bozorlarga jadal kirib borish, Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni va Yevropaning GSP+ tizimidan unumli foydalangan holda eksport geografiyasini kengaytirish talab etiladi.

Shu o‘rinda bir narsani tan olishimiz kerak. Murakkab geosiyosiy sharoitda birinchi yarim yillikda yurtimizda 8,5 foizlik o‘sishga erishilgani va kredit reytinglari yaxshilangani aynan tadbirkorlarning mehnati samarasidir. Prezident ta’kidlaganidek, “Iqtisodiyotni soyadan chiqarish tekshirish bilan emas, tadbirkorga yo‘l ko‘rsatib, to‘g‘ri ishlashga o‘rgatish orqali bo‘lishi kerak”. Tadbirkorning huquqlari himoya qilinsa va tizim shaffof bo‘lsa, soyadan chiqishdan uning o‘zi manfaatdor bo‘ladi.

Muloqotda e’lon qilingan tashabbuslar esa tadbirkorlikka alohida “bosqichma-bosqich” yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi. Birinchidan, moliyalashtirishning inqilobiy ekotizimi barpo etilmoqda. Endilikda kredit berish shunchaki pul ajratish emas, balki biznesning o‘sish bosqichiga qarab “Biznes start”, “Biznes lift” va “Biznes yuksalish” dasturlari orqali amalga oshiriladi. “Biznes start”da sun’iy intellekt yordamida hujjatlar tayyorlanib, yangi ish boshlayotgan tadbirkorga 200 million so‘mgacha garovsiz kredit beriladi. 10 milliard so‘mgacha kredit olishda tadbirkor bor-yo‘g‘i 25 foizlik garov topsa kifoya. Ushbu mexanizmlar tadbirkorga moliyalashtirish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi, kichik va o‘rta biznesning eng muhim to‘siqlarini bartaraf etadi.

Ikkinchidan, hududlar salohiyati va resurslarga erkin chiqish imkoniyati yaratiladi. Davlat mulkini xususiylashtirishda avans to‘lovi 30 foizdan 15 foizga tushirildi, qolgan qismini 7 yil davomida foizsiz bo‘lib to‘lash imkoni berildi. “Bond sanoat zonalari”ning tashkil etilishi, banklar balansidagi 9 trillion so‘mlik mulklarning chegirma bilan sotilishi va gaz/energiya uchun avans to‘lovining 15 foizga tushirilishi tannarxni ahamiyatli darajada arzonlashtiradi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt va kapital bozorida texnologik sakrash yuz beradi. Prezidentimiz eng zamonaviy trendni ilgari surdi. “10 ming korxona uchun – sun’iy intellekt hamkor” dasturi boshlandi. Xarajatlarning 50 foizi kompensatsiya qilinadi, 100 million dollar ajratiladi. Mazkur tashabbus mahsulot unumdorligi va tannarx raqobatbardoshligini oshirish uchun berilgan muhim imkoniyatdir. Shu bilan birga, 1 million yoshni zamonaviy kasblarga o‘rgatish hamda yiliga 50 ta korxonani IPOga olib chiqish ko‘zda tutilgan.

To‘rtinchidan, yetkazib berishdan “Eksport navigator”gacha tizimi amalga oshiriladi. Eksportchilarni “podshohday asrash” tamoyili ilgari surildi. 1 milliard dollarlik qo‘llab-quvvatlash tizimi, “Eksport elchilari” instituti va top-100 mahsulot bo‘yicha logistika yechimlari tadbirkorni tashqi bozordagi shafqatsiz raqobatda yolg‘iz qoldirmaydi. Eksportchilarni qo‘llab-quvvatlashning yagona tizimiga kamida 1 milliard dollar yo‘naltirilishi, asosiy va istiqbolli tashqi bozorlarda “eksport elchilari” faoliyatini yo‘lga qo‘yish esa milliy biznesning xorijdagi manfaatlarini institutsional himoya qilish mexanizmlarini kuchaytiradi.

Beshinchidan, ma’muriy bosimga to‘liq barham berish ko‘zda tutilmoqda. Ushbu yo‘nalish tadbirkorning huquqiy himoyasini mutlaqo yangi darajaga ko‘tardi. Kichik biznes uchun 3 yillik moratoriy e’lon qilindi. Jarimalar miqdori 2 barobar kamaytirildi. “Tadbirkorning haqlilik prezumpsiyasi” va “Birinchi xato uchun ogohlantirish” qoidasi joriy etildi. 30 dan ortiq litsenziyalar bekor qilindi, “sukut – rozilik” tamoyili kengaytirildi. Bu esa, Prezident tadbirkor huquqini himoya qilishni shaxsiy nazoratiga olganini ko‘rsatadi. Bularning barchasi biznes muhitida ishonch va xotirjamlikni mustahkamlashga qaratilgan. Mazkur choralarning iqtisodiy ahamiyatini faqat ma’muriy yengillik sifatida baholash kamlik qiladi. Chunki tadbirkor o‘z biznesining ertangi kuniga ishonsa, u ko‘proq investitsiya qiladi, yangi ishchi o‘rinlari yaratadi, texnologiya joriy etadi va uzoq muddatli rejalar tuzadi. Demak, huquqiy kafolat va ma’muriy barqarorlik ham iqtisodiy o‘sishning muhim omilidir.

Shu nuqtayi nazardan, VI ochiq muloqotda belgilangan chora-tadbirlarning barchasini bir nuqtada birlashtiruvchi umumiy mantiq bor. Davlat tadbirkorga faqat kredit yoki imtiyoz berib qolmayapti, balki kapital, aktiv, texnologiya, bozor, eksport, kadr va huquqiy himoyani bir-biri bilan bog‘laydigan yaxlit iqtisodiy ekotizimni shakllantirmoqda, bu tadbirkorlik siyosatining mazmunidagi jiddiy evolyutsiyadan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning muloqot yakunidagi so‘zlari ushbu siyosatning falsafiy va siyosiy mohiyatini ochib beradi: “Sizlarning ortingizda doimo qo‘llab-quvvatlaydigan kuchli davlat, huquq va manfaatingizni himoya qiladigan qonun, tashabbus va maqsadlaringizni ro‘yobga chiqarishda yelkadosh bo‘lgan Prezident bor!”

Davlatimiz rahbarining bu boradagi qat’iyati bir qator omillar bilan izohlanadi. Eng avvalo, sarmoya qo‘rqoq – himoya va ishonch kerak. Sarmoyador (mahalliy yoki xorijiy) faqat huquqi mustahkam himoyalangan, mulki daxlsiz bo‘lgan va davlat idoralari tomonidan asossiz tekshiruvlar bo‘lmagan joyga pul tikadi. Boshqa tomondan, davlat apparati tafakkurini o‘zgartirish zarur. Afsuski, ba’zi nazoratchi va amaldorlar ongida haligacha tadbirkorga “daromad manbayi” yoki “aybdor” sifatida qarash inersiyasi saqlanib qolmoqda. Prezidentning shaxsiy kafolati va moratoriylar bunday byurokratik to‘siqlarni sindirish uchun zarur.

Muloqot davomida yana bir masalaga katta e’tibor qaratildi. Ya’ni, har bir hududning salohiyatidan kelib chiqib yangi o‘sish nuqtalari belgilab berildi. Toshkentda eksportga yo‘naltirilgan biznes, Farg‘ona vodiysida to‘liq zanjirli sanoat, Samarqand, Buxoro va Xorazmda turizm, kreativ industriya va agrosanoat brendlarini rivojlantirish vazifasi qo‘yildi. Navoiy va Toshkent viloyatida tog‘-kon, metallurgiya va ilmiy kimyo, Qashqadaryo va Surxondaryoda agrosanoat va neft-gaz kimyosi, Qoraqalpog‘istonda “yashil” energetika, axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt, Jizzax va Sirdaryoda avtomobilsozlik, elektrotexnika va qurilish materiallari asosiy o‘sish nuqtalari etib belgilandi.

Ochiq muloqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda yangi avlod – zamonaviy, fikrlaydigan va tavakkalchi tadbirkorlar sinfi shakllanib bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan yuksak e’tibori – bu vaqtinchalik kampaniya emas, balki Yangi O‘zbekistonning strategik taraqqiyot modelidir.

Davlat tomonidan berilayotgan kafolatlar va yaratilayotgan imtiyozlar tadbirkorlardan faqat bitta narsani – jasorat bilan yangi loyihalarni amalga oshirishni, innovatsiyalarni joriy etishni va tashqi bozorlarga intilishni talab etadi.

Farovonlik aynan shunday iqtisodiy vatanparvarlik ustiga quriladi.

Iqbol MIRZO

MILLIY MAGISTRAL

Boshlanishi 1-sahifada.

YO‘L XAVFSIZLIGI: O‘TMISHDA VA BUGUN

Tarixda yo‘l xavfsizligi yo‘lovchi va karvonni qaroqchi, talonchi hamda o‘g‘ridan himoyalash bilan o‘lchangan. Qadimiy rabot va karvonsaroylar shu ma’noda faqat savdo yoki tunash joyi emas, o‘z davrining xavfsizlik infratuzilmasi ham edi. Bugungi xavfning qiyofasi boshqacha. Yo‘lovchiga qaroqchidan ko‘ra qarama-qarshi oqim bilan to‘qnashuv, tartibsiz kesishma, tirbandlik, toliqqan haydovchi, nosoz qoplama va kechikkan tibbiy yordam ko‘proq tahdid soladi. Tirbandlikning o‘zi ham xavfsizlik masalasi. Tiqinda asabi charchagan haydovchi yo‘qotgan vaqtini qoplashga urinib, tavakkaliga quvib o‘tadi, tezlikni oshiradi. Tiqin esa tez yordam va o‘t o‘chirish mashinasining yo‘lini to‘sadi.

2024-yilning yo‘l-transport hodisasi bo‘yicha sovuq hisobi shunday: mamlakat yo‘llarida 9 ming 364 hodisa rasman qayd etilgan. 8 ming 901 kishi tan jarohati olgan, 2 ming 203 oilaning eshigidan motam kirgan.


Shu bois, xavfsizlik muhandislikdan boshlanishi lozim. Negaki, qarama-qarshi oqimlarni ajratish, nazorat qilinadigan kirish-chiqish, piyodalar va chorva mollari uchun alohida o‘tish joylari, tungi yoritish, hodisani darhol aniqlaydigan raqamli markaz, tez yordam va qutqaruv nuqtalari – bularning har biri inson umriga daxldordir. Yo‘lbo‘yi infratuzilmasi ham bezak emas. Yoritilgan to‘xtash joyi, toza hojatxona, suv, ovqatlanish maskani, yoqilg‘i va elektr quvvatlash shoxobchasi, shinomontaj, dorixona va birinchi yordam nuqtasi xavfsizlikning bir qismi. Qadimgi karvonsaroylar yo‘lovchilarni qaroqchilardan, issiq-sovuqdan, ochlikdan asragan bo‘lsa, zamonaviy servislar majmuasi ularni charchoq va sarsongarchilikdan himoyalab, ko‘maksiz qoldirmaydi.

XARAJATNING IQTISODIY QAYTIMI

Hozir ochiq turgan moliyaviy manzara shunday: sarfning 85 foizi Xitoy banklari berishi kutilayotgan kreditlar, qolgan 15 foizi O‘zbekiston byudjeti zimmasida. Yo‘l bitgach, uni boshqarish uchun yana alohida operator tanlanadi. Shu sabab, 2,2 milliard dollar mablag‘ni yo‘l haqiga bo‘lib, “falon yilda qoplanadi” deyish hisob emas, faqat taxmin bo‘ladi. Qolaversa, kassaga tushgan yalpi mablag‘ning barchasi sarmoya qaytimi emas: yo‘lni saqlash, boshqarish, xavfsizlik, qutqaruv xizmati va qarz foizlari ham shu tushumdan qoplanadi.

Aslida, avtomagistralning iqtisodiy qaytimi ulkan: tejalgan vaqt va yoqilg‘i, kamaygan amortizatsiya, mahsulotni yo‘qotishning qisqarishi, yangi logistika markazlari, servis korxonalari, ish o‘rinlari, soliq tushumi, turizm va samarali xavfsizlik. Dastlabki hisobni oddiy tilga o‘girsak, tashuvchining bugun har 100 so‘mga tushayotgan xarajatidan 19-24 so‘mini tejash imkoni paydo bo‘lishi mumkin. Magistral o‘tadigan iqtisodiy hududlar – Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida yalpi mahsulotga qo‘shimcha 3 foizlik turtki kutilmoqda. Jahon bankining infratuzilma samarasiga oid tahlillari esa sarflangan bir dollar iqtisodiyot bo‘ylab aylanib, besh dollargacha natija tug‘dirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Bu samara o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Yo‘l o‘tadigan 13 ta tumanda logistika markazlari, omborlar, qayta ishlash sexlari, mehmonxonalar, ustaxonalar, ovqatlanish va dam olish maskanlari tashkil etilsa, magistral o‘zi o‘tgan barcha hududlarning iqtisodiyotini yuksaltirishi mumkin.



Aks holda, mahalliy aholi mashinalar shovqini va yer ajratish oqibatini ko‘radi-yu, daromad uning yonidan o‘tib ketaveradi.

TARIXIY ILDIZLAR SARI

Toshkent – mamlakatning siyosiy, moliyaviy, ilmiy va boshqaruv markazi. Samarqand esa tarixiy xotira, madaniy meros va xalqaro turizmning yorqin timsollaridan biri. Bu ikki shahar o‘rtasidagi yo‘l oddiy geografik masofani emas, zamonaviy davlat bilan uning tarixiy ildizini bog‘laydi. Qadimda Samarqand orqali savdo karvonlari bilan birga ilm, din, san’at, hunar, til va dunyoqarashlar ham harakatlangan. Yangi avtomagistral, tezyurar temiryo‘l va aviatsiya qatnovi ana shu tarixiy chorrahani zamonaviy iqtisodiy harakatga qayta ulaydi.

Safar vaqtining besh soatdan ikki yarim soatga tushishi odamning safar haqidagi qaroriga ham ta’sir qiladi. Besh soatlik yo‘l alohida tayyorgarlik talab qilsa, ikki yarim soatlik masofa dam olish kungi safarga aylanadi. Bu muzey va ziyoratgohga yangi mehmon, hunarmandga xaridor, mehmon uyi va milliy taomlar maskaniga mijoz olib keladi. Eng muhimi, yo‘l Samarqandda tugamaydi. U janubiy viloyatlar sari davom etadigan turistik hamda madaniy yo‘nalishlar harakatini ham tezlashtiradi. Shu ma’noda, magistral mamlakat imijini reklama orqali emas, mehmonning tejalgan vaqti, xavfsiz safari va olgan taassuroti orqali shakllantiradi.

TRANSPORT TAFAKKURIDAGI YANGILIK

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston transport tafakkuriga olib kirgan yangilik faqat avtomobil yo‘li, yana bir poyezd yoki yangi havo qo‘nalg‘asi qurishdan iborat emas. Yangilik – avtomobil yo‘li, temiryo‘l, metro, aviatsiya, shahar transporti va logistikaning bir-birini davom ettiradigan yagona harakat tizimi sifatida ko‘rilayotganidadir. Prezidentimiz 2025-yildagi Toshkent xalqaro investitsiya forumida bu qarashni bir jumla bilan ifodaladi: “Biz transport va logistika sohasini iqtisodiyotimizning qon tomiri sifatida ko‘ramiz”.

Maqolamizning asosiy kalit jumlasi ham shu aslida. Odam bolasi manzilga yetish uchun yo‘l qidirsa, davlat taraqqiyotga yetish uchun harakat tizimini quradi. Temiryo‘l ham – yo‘l. Uchoqning osmonda ko‘zga ko‘rinmaydigan havo yo‘lagi ham – yo‘l. Vokzaldan havo qo‘nalg‘asiga, havo qo‘nalg‘asidan shaharga, qishloqdan magistralga olib chiqadigan kichik ko‘cha ham – shu tizimning bir tomiri. Bir tomir tiqilsa, butun tana bezovta bo‘ladi.

1964-yilning 1-oktyabri. Tokio Olimpiadasining ochilishiga to‘qqiz kun qolgan. Yaponiya dunyoda birinchi bo‘lib yuqori tezlikdagi “Sinkansen”ni ishga tushirdi. Poyezd soatiga 210 kilometr yurishi o‘sha kezda mo‘jizadek tuyulgan. Bugun esa Xitoyda yo‘lovchi tashiydigan tezyurar poyezdlar soatiga 350 kilometr tezlikda harakatlanmoqda. Jahon xaritasini temir izlar bo‘yicha kuzatsak, ko‘z oldimizda yana bir manzara jonlanadi. 2025-yilgi xalqaro atlas ishlayotgan, qurilayotgan va rejaga kirgan yuqori tezlikdagi tarmoqlarni qo‘shib hisoblaganda 67 ming 700 kilometrdan ziyod masofani ko‘rsatadi. Uning 47 ming 800 kilometridan ortig‘i birgina Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi. Har kuni qariyb besh ming tezyurar tarkib yo‘lga chiqadi. Ular bir yilda tashiydigan yo‘lovchilar soni uch milliarddan oshadi.

Biroq bundagi asosiy yutuq tezlikning o‘zi emas. Yutuq – aniq jadval, xavfsizlik, uzluksiz xizmat va poyezddan tushgan yo‘lovchini keyingi manzilga yetkazadigan transportning shay turishida.

O‘zbekiston bu poygaga 2011-yili “Afrosiyob” bilan qadam qo‘ygan edi. Yangi O‘zbekiston davriga kelib, bu yagona yutuq bo‘lib qolmadi. Tezyurar poyezdlarning qatnov geografiyasini kengaytirish, yangi tarkiblarni olib kelish va temir yo‘lni elektrlashtirish bir-biriga bog‘langan dasturga aylandi. Prezidentimizning 2022-yili Xorazmda ilgari surgan tashabbusidan so‘ng, Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasidan oltita zamonaviy elektropoyezd xarid qilinishi bo‘yicha shartnoma imzolandi. 2026-yilning 5-may kuni “Jaloliddin Manguberdi” poyezdi Toshkentdan Xivaga muntazam qatnay boshladi. Buning uchun Buxorodan Urganch va Xivagacha bo‘lgan qariyb 450 kilometr temir yo‘l elektrlashtirildi. Yetti vagonga joylashadigan 389 yo‘lovchi endi 1 ming 22 kilometr masofani taxminan 7,5 soatda bosib o‘tmoqda. Endi kechagina shu yo‘lga 14 soatgacha vaqt sarflanganini jilmayib eslaymiz.

YAQINLASHAYOTGAN MANZILLAR

Yangi O‘zbekistonda Toshkentning metro xaritasiga 33 kilometr yangi iz va 21 bekat qo‘shildi. Buni quruq masofa deb bo‘lmaydi: Yashnobod, Mirobod, Sergeli, Yangihayot va Yunusobodda yashaydigan qariyb bir million kishiga shaharning eng tez transporti yaqinlashdi.

Xalq uchun xayrli bo‘lgan bu jarayon to‘xtagani yo‘q. 2030-yilgacha metro izlari 103 kilometrga, bekatlar 79 taga yetishi, bir kunda 1 million 800 ming yo‘lovchini tashishi ko‘zda tutilgan. Metro xaritasining hozir qurilayotgan muhim bo‘lagi – Yangi Toshkentni mavjud tarmoqqa ulaydigan 21 kilometrlik yo‘ldir. Undagi 9 bekat kuniga 230 ming kishiga xizmat ko‘rsatadi.

E’tibor bering: gap faqat metro yo‘lining uzunligi haqida emas. Yangi bekat yonida mashina qoldirish joyi, avtobus va shahar atrofi poyezdi bir-birini kutib turishi lozim bo‘lgan tartib ham shakllantirilmoqda. Elektropoyezddan metroga yoki avtobusga yagona tarif orqali o‘tish, mashinani qoldirib, metroga o‘tish uchun “Park&Ride”dan foydalanish, jadvallarni bir-biriga moslashtirish masalalari kun tartibiga chiqdi. Demak, metro manzilning oxiri emas, katta harakat halqasining bir bo‘g‘iniga aylanmoqda.

HAVODAGI TEZLIKNING YERDAGI QADRI

Dubay havo qo‘nalg‘asining muvaffaqiyatini faqat uchish-qo‘nish yo‘laklari bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Singapurning “Changi” havo qo‘nalg‘asi ham shunchaki havo darvozasi emas – u mamlakat haqidagi ilk taassurotni shakllantiradigan, yo‘lovchi vaqtini qadrlaydigan, o‘zining sifatli xizmat ko‘rsatish tizimi orqali davlat madaniyatini ko‘rsatadigan makondir. Yaponiyada samolyotdan tushgan odam poyezd jadvalini taxmin qilmaydi. Germaniyada vokzal bilan havo qo‘nalg‘asi o‘rtasidagi bog‘lanish shunchaki tasodif hukmiga havola etilmagan.

Men Singapurda “Changi” havo qo‘nalg‘asida bo‘lganimda, bu makonni hayrat bilan tomosha qilgan, so‘ng bu hayrat ortidan ko‘nglimni og‘ritgan shunday savol paydo bo‘lgan edi: “Bor-yo‘g‘i 744 kvadrat kilometrlik Singapur shunday ajoyib havo qo‘nalg‘asi quribdi. Hududi undan 600 baravardan ziyod O‘zbekiston buni eplolmaydimi?” Albatta, eplaydi. Men bunga ishonaman. Bu ishonch quruq tasalli emas. Mamlakatning havo darvozalari birin-ketin o‘zgaryapti: Samarqand yangi terminal bilan mehmon kutib olyapti, viloyat havo qo‘nalg‘alari qayta qurilyapti, osmonda yangi milliy tashuvchilarning qanotlari ko‘zga tashlanyapti. Miqyos va maqsad jihatidan eng katta qadam esa Toshkent viloyatidagi yangi xalqaro havo qo‘nalg‘asi loyihasidir.

“O‘zbekistonni Sharq va G‘arb, Janub va Shimolni bog‘lovchi yirik aviatsiya xabiga aylantirishni maqsad qilganmiz”, deydi Prezident bu havo qo‘nalg‘asi haqida. Bu qo‘nalg‘a birinchi bosqichining o‘zi 1 ming 300 gektar maydon va 2,5 milliard dollarlik sarmoya degani. O‘rta Chirchiq bilan Quyi Chirchiq tumanlari oralig‘ida bunyod bo‘ladigan bu majmua bir yilda 20 million yo‘lovchi va 129 ming tonna yuk oqimini qabul qilishi, bir soatning o‘zida 30 ta samolyotni uchirishi yoki qo‘ndirishi ko‘zda tutilgan. Eng muhim jihat raqamlarda emas. Loyiha chizmasida havo qo‘nalg‘asi yolg‘iz qoldirilmagan: undan Toshkent – Samarqand, Toshkent – Andijon va Toshkent – Bo‘stonliq avtomagistrallariga yo‘l tortiladi. Terminal yonida temir yo‘l bekati bunyod etilib, tezyurar poyezdlar qatnovi ham yo‘lga qo‘yiladi. Poytaxt va Yangi Toshkentga qatnaydigan qisqa masofali shattllar esa havodagi safarni yerda davom ettiradi.

Ya’ni, yo‘lovchining havo qo‘nalg‘asiga yetib borishi va undan chiqib ketishi ham parvozning davomi deb qaralishi lozim. Uchoqdan tushgan odam yana soatlab taksi kutsa yoki tirbandlikda qolsa, havodagi tezlikning yerda qadri qolmaydi. Aeroportning haqiqiy bahosi peshtoq balandligi yoki yaltiroq shishalar bilan emas, yo‘lovchi yukini qancha vaqtda qo‘liga olgani, chegara nazoratidan qanday o‘tgani, poyezd yoki avtobusga qanchalik oson o‘tirishi bilan o‘lchanadi. Shu ma’noda, havodagi parvoz yerdagi yo‘ldan boshlanadi.

MILLIY YO‘L SUVERENITETI

Geografiya bizga bitta qattiq shart qo‘ygan. O‘zbekistondan dengiz portiga yetib borish uchun bir emas, kamida ikki davlat chegarasidan o‘tishimiz zarur. Dunyoda bunday ikki karra quruqlik halqasida qolgan mamlakat atigi ikkita. Biri Markaziy Yevropadagi Lixtenshteyn knyazligi, ikkinchisi O‘zbekiston. Jahon banki tahlillari tabiat belgilagan shu masofaga logistikadagi uzilishlar ham qo‘shilsa, milliy savdo qimmatlashishini ko‘rsatadi. Bunday sharoitda transport vaqti oddiy qulaylik emas, u raqobatdoshlik, xavfsizlik va suveren qaror qabul qilish imkoniyati hamdir. Bu haqiqatni anglash uchun yaqin tarixdan bir misol yetarli. M-39 yo‘lining Qozog‘iston hududini kesib o‘tadigan qariyb 24 kilometri 2006-yili berkitildi. O‘ziga xos sabablar bilan yopilgan bu yo‘l faqat 2017-yili qayta ochildi. Oradagi o‘n yil haydovchilarga xaritada qisqadek ko‘ringan yo‘lning aylanmasi qanchalik uzun bo‘lishini ko‘rsatdi. Masofa davlat chegarasiga borib taqalganda, bir necha o‘n kilometr ham strategik masalaga aylanar ekan.

Yangi avtomagistral bu qaramlikni yo‘qotadi, mamlakat ichidagi harakatni o‘z qo‘limizga olish imkonini kengaytiradi. Farg‘ona vodiysi va markaziy hududlarni janub hamda g‘arbga tezroq ulaydi, Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston yoki Transafg‘on yo‘laklaridan kirgan yukni ichki manzillarga tarqatadi. Temiryo‘l va yangi havo qo‘nalg‘asi bilan tutashganida esa u shunchaki katta yo‘l bo‘lib qolmay, milliy transport belbog‘iga aylanadi. U bir vaqtning o‘zida iqtisodiy loyiha, ijtimoiy qulaylik, turistik yo‘lak, madaniy ko‘prik, muhandislik maktabi va transport suvereniteti vositasidir. Bu, davlat kelajagiga kiritiladigan strategik sarmoyadir.

Albatta, tamal toshi hali tayyor yo‘l emas. Loyihaning haqiqiy bahosi 2030-yilda ochilish tasmasi kesilgan paytda ham emas, undan keyingi yillarda: beton qancha xizmat qildi, xavfsizlik qanchalik ta’minlandi, qarz qanday qaytarildi, yo‘l haqi aholi imkoniyatiga mos keldimi-yo‘qmi, yo‘lbo‘yi hududlar daromad olyaptimi, degan savollarga ijobiy javob berilganda aniq bo‘ladi. Ammo hozir aytilayotgan bu savollar e’tirofni kamaytirmaydi. Aksincha, boshlangan ishning qadrini saqlaydi.

Abdulhamid MUXTOROV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

AVVAL IQTISOD...

YANGI TRANSFORMATSION BOSQICHDA



2016–2026-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida kechayotgan tarkibiy transformatsiya – iqtisodiy liberallashuv, turizmning yangi o‘sish drayveriga aylanishi, kreativ iqtisodiyotning institutsionallashuvi va xizmatlar sektorining kengayishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik borgan sari ko‘zga tashlanmoqda. Asosiy e’tibor milliy madaniy merosni yuqori qo‘shilgan qiymatli kreativ mahsulot va turistik tajribaga aylantirish, shu orqali xizmatlar eksporti, xususiy investitsiya va bandlikni kuchaytirish masalasiga qaratilmoqda. Bugun turizm, kreativ industriya va xizmatlar sektorini yagona qiymat yaratish tizimi sifatida ko‘rish hamda natijadorlikni turistlar sonidan tashqari turist xarajati, qolish muddati, kreativ mahsulot ulushi va xizmatlar eksporti orqali baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2016–2026-yillar oralig‘ida O‘zbekiston iqtisodiyotida shakllangan yangi bosqichni faqat makroiqtisodiy o‘sish yoki alohida islohotlar yig‘indisi sifatida emas, balki iqtisodiy qiymat yaratish manbalari, sektorlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va bozor institutlarining yangilanishi nuqtayi nazaridan baholash maqsadga muvofiq. 2017-yildan boshlangan liberallashuv, valyuta bozorini erkinlashtirish, tadbirkorlik muhitini kengaytirish va xususiy sektor rolini kuchaytirish jarayonlari mamlakatni resurs va davlat ustuvorligiga tayangan modeldan xizmatlar, bilim va raqobatga asoslangan modelga tomon siljitdi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2017–2025-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida real o‘sishning o‘rtacha sur’ati yillik 6 foiz atrofida saqlandi, 2025-yil yakunlariga ko‘ra esa, yalpi ichki mahsulotning real o‘sishi 7,7 foizni tashkil etdi.

Islohotlarning dastlabki iqtisodiy natijalari avvalambor bozor mexanizmlarining kengayishi, xususiy tashabbus uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilishi va investitsiya muhitining yaxshilanishida ko‘rindi. Bu jarayonlar o‘z navbatida turizm, xizmatlar va kreativ faoliyat kabi tarmoqlarda yangi o‘sish nuqtalarini shakllantirdi. Maqsad turizm, kreativ iqtisodiyot, xizmatlar, hunarmandchilik qaysidir ma’noda tadbirkorlik orqali yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga o‘tishidir. Shu ma’noda, 2024-yil 3-oktyabrda “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichida muhim jihat shundaki, o‘sish sanoat yoki qishloq xo‘jaligi doirasidagina emas, balki servislar, madaniy resurslar va intellektual mahsulotlar hisobidan ham ta’minlanmoqda. Shu ma’noda, bozor islohotlari orqali yaratilgan muhit turizm va kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi uchun institutsional baza vazifasini bajaradi.

Jahon bankining 2025-yilgi “Country Economic Memorandum” hisobotida xizmatlar sektori O‘zbekistonda ish o‘rinlarining 40 foizdan ortig‘ini qamrab olayotgani, biroq yuqori texnologiyali va eksportbop xizmatlar ulushini oshirish asosiy vazifa bo‘lib qolayotgani ta’kidlangan. UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda jahonda kreativ xizmatlar eksporti 1,4 trillion AQSH dollariga yetgan, UNESCO esa madaniy va kreativ sohalar jahon YIMining 3,1 foizini va bandlikning 6,2 foizini ta’minlayotganini qayd etadi. Demak, kreativ iqtisodiyot va xizmatlar sohasini taraqqiyotning qo‘shimcha yo‘nalishi sifatida emas, balki mustaqil iqtisodiy drayver sifatida ko‘rish zarur.

Mazkur maqolada qo‘llanilgan yondashuv tizimli, qiyosiy-dinamik va institutsional tahlilga asoslanadi. Empirik baza sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining yalpi ichki mahsulot, bozor xizmatlari hajmi va turizm ko‘rsatkichlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining turizm sohasidagi rasmiy axboroti, shuningdek, kreativ iqtisodiyot bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar olindi. Statistik ma’lumotlar 2017–2025-yillar kesimida solishtirildi, institutsional o‘zgarishlar esa 2024–2026-yillarda shakllangan huquqiy baza orqali baholandi.


Yangi iqtisodiy bosqichning makroiqtisodiy belgilaridan biri xizmatlar sektori hajmining tez o‘sishidir. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda 389,4 trillion so‘mni tashkil etgan bozor xizmatlari hajmi 2025-yilga kelib 1 050,3 trillion so‘mga yetdi. Bu o‘sish xizmatlar iqtisodiyotiga o‘tish jarayonining miqdoriy ifodasidir, ammo uning mazmuni xizmatlar tarkibida qaysi sohalar o‘sgani bilan belgilanadi. Savdo, transport, axborot-kommunikatsiya, moliyaviy xizmatlar, joylashtirish va ovqatlanish, professional xizmatlar, shuningdek, turizm bilan bog‘liq servislar o‘sishning muhim manbalariga aylandi.

O‘zbekiston iqtisodiy transformatsiyasining tanlangan natijaviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2017-yil	2025-yil	Izoh
YIM real o‘sishi, %	5,0	7,7	2025-yilda yuqori sur’at saqlandi
Xorijiy turistlar, million nafar	2,7	11,7	4,3 baravar o‘sish
Turizm xizmatlari eksporti, milliard AQSH dollari	0,531	4,8	keskin kengayish
Bozor xizmatlari hajmi, trillion so‘m	–	1 050,3	2021–2025-yillarda tez o‘sish
Kreativ iqtisodiyot huquqiy bazasi	shakllanmagan	tizimli shakllandi	2024–2026-yillar, institutsional bosqich

Islohotlarning eng yorqin natijalaridan biri turizm sohasida namoyon bo‘ldi. Oxirgi yillarda turizm faqat madaniy-gumanitar sohadagi faoliyat emas, balki eksport, investitsiya va hududiy daromadlar manbayi sifatida qarala boshladi. 2025-yilda O‘zbekistonga turistik maqsadda 11,7 million nafar xorijiy fuqaro tashrif buyurdi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy ma’lumotiga ko‘ra, 2017-yilda 2,7 million nafarni tashkil etgan xorijiy turistlar soni 2025-yilga kelib 11,7 million nafarga, turizm xizmatlari eksporti esa 531 million AQSH dollaridan 4,8 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu turizmning iqtisodiy o‘sish va xizmatlar eksportining yangi drayveriga aylanganini tasdiqlaydi.

Turizmning sifat jihatdan yangi modeli esa tarixiy merosning oddiy tomosha obyekti sifatida emas, balki yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tajriba mahsuloti sifatida baholanishi bilan bog‘liq. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlar ziyorat turizmi, gastronomik turizm, hunarmandchilik, festivallar, shahar madaniyati, dizayn va raqamli kontent bilan boyitilganda turist uchun ko‘proq iqtisodiy qiymat yaratadi. Bunda turizm obyektlari va kreativ industriya o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchayadi: turistik tajriba hunarmandchilik mahsulotiga talabni oshiradi, milliy naqsh va brend dizayni suvenir va kontent bozorini kengaytiradi, madaniy tadbirlar esa xizmatlar eksporti uchun qo‘shimcha multiplikator vazifasini bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sa’y-harakatlari va tashabbuslari bilan Samarqandda Imom Buxoriy majmuasining yangidan qad ko‘tarishi, Toshkentda muhtasham O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ishga tushirilishi, hech mubolag‘asiz, dunyo ziyorat turizmi landshaftini butunlay o‘zgartirib yubordi.




Turizm, kreativ iqtisodiyot va xizmatlar konvergensiyasining qiymat yaratish modeli

Yuqoridagi chizma turizm, kreativ iqtisodiyot va xizmatlar sektorining alohida emas, balki bir-biriga ta’sir qiluvchi yagona zanjir ekanini ko‘rsatadi. Iqtisodiy liberallashuv investitsiya va xususiy sektor uchun umumiy muhit yaratadi; turizm tashqi talabni mamlakat hududiga olib kiradi; milliy madaniy meros kreativ industriya bilan birlashganida mahsulot va tajribaga aylanadi; raqamli va bozor xizmatlari ushbu mahsulotni ichki va tashqi bozorga yetkazadi; natijada eksport tushumi, bandlik va hududiy daromadlar o‘sadi.

Kreativ iqtisodiyotning mohiyati inson kapitaliga tayangan iqtisodiy faoliyatda yaqqol namoyon bo‘ladi. Dizayn, arxitektura, kino, musiqa, teatr, hunarmandchilik, reklama, media, IT va kontent ishlab chiqarish kabi sohalarda asosiy resurs xomashyo emas, balki bilim, iste’dod, intellektual mulk va ijodiy interpretatsiya hisoblanadi. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish, ayniqsa, muhim, chunki milliy naqshlar, tarixiy meros, an’anaviy hunarmandchilik, gastronomiya va musiqiy meros global bozorda raqobatbardosh kreativ mahsulotga aylanishi mumkin.


2024–2026-yillarda kreativ iqtisodiyot sohasida shakllangan huquqiy-institutsional baza ushbu jarayonga yangi sur’at berdi. 2024-yilda qabul qilingan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonun, 2026-yil 16-fevraldagi PQ-64-sonli qaror, 2026-yil 3-martdagi 90-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori va 2026-yil 7-iyuldagi O‘RQ-1157-sonli qonun kreativ industriya subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, parklar va klasterlar yaratish, statistik hisobni yo‘lga qo‘yish, soliq va institutsional imtiyozlar berishga qaratildi. Shu tariqa, kreativ faoliyat madaniy tashabbus doirasidan chiqib, iqtisodiy siyosatning to‘laqonli obyektiga aylandi.



Bozor islohotlaridan turizm va kreativ iqtisodiyot orqali xizmatlar eksportiga o‘tish mexanizmi


Bozor islohotlari institutsional muhit yaratadi, turizm ushbu muhitdan foydalanib tashqi talabni jalb qiladi, tarixiy meros va madaniy resurslar kreativ mahsulotga aylantiriladi, xizmatlar sektori esa ushbu mahsulotlarni tijoratlash va eksportga olib chiqishni ta’minlaydi. Natijada mamlakatning iqtisodiy o‘sishi yanada sifatli tus oladi, ya’ni, qiymat zanjirida mahalliy qo‘shilgan qiymat ulushi ortib boradi.

Turizm va kreativ faoliyat o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlikni yanada yaqqolroq ko‘rsatish uchun 2017 va 2025-yillarda xorijiy turistlar soni hamda turizm xizmatlari eksporti dinamikasi 1-diagrammada keltirildi. Unda turistlar soni va eksport tushumi o‘rtasidagi parallel o‘sish iqtisodiy liberallashuvdan keyin turizm sohasining iqtisodiy ahamiyati sezilarli darajada kuchayganini ko‘rsatadi.



O‘zbekistonda turizm dinamikasi: xorijiy turistlar va eksport, 2017 va 2025-yillar

Kreativ iqtisodiyotning amaldagi iqtisodiy qiymati milliy madaniyatdan global kreativ mahsulot yaratish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Milliy naqshlar, hunarmandchilik an’analari, me’moriy uslublar, gastronomik brendlar, milliy musiqa va shahar merosi tovarlar, xizmatlar va raqamli kontentga aylantirilganda “madaniy meros → kreativ mahsulot → turistik tajriba → eksport daromadi” zanjiri shakllanadi. Bu yerda turizm va kreativ iqtisodiyot bir-birini to‘ldiruvchi tarmoqlardir, ya’ni, turist kreativ mahsulot uchun bozor yaratadi, kreativ mahsulot esa turistik tajribaning qiymatini oshiradi. Xizmatlar iqtisodiyotiga o‘tish ushbu jarayonning makroiqtisodiy ifodasi hisoblanadi. Xizmatlar bozori hajmining 2021–2025-yillarda qariyb 2,7 baravar o‘sishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar ulushi va aylanmasining tez kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq bu o‘sishni avtomatik tarzda yuqori unumdorlik bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas. Asosiy vazifa xizmatlar sonini ko‘paytirishdan ko‘ra, ularning tarkibida raqamli, moliyaviy, kreativ, professional va eksportbop segmentlar ulushini kengaytirishdan iborat. Shu ma’noda, xizmatlar iqtisodiyotiga o‘tish – bu miqdoriy emas, sifat o‘zgarishi hamdir.



O‘zbekistonda bozor xizmatlari hajmi dinamikasi, 2021–2025-yillar

Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, O‘zbekiston uchun eng maqbul yo‘l turizm, kreativ iqtisodiyot va xizmatlar sektorini alohida emas, yagona rivojlanish ekotizimi sifatida boshqarishdir. Turizmda natijadorlikni faqat tashriflar soni emas, bir turistga to‘g‘ri keladigan xarajat,



Nurislom TO‘XLIYEV, akademik

o‘rtacha qolish muddati, mahalliy mahsulot xaridi va kreativ xizmatlardan tushum bilan baholash maqsadga muvofiq. Kreativ klasterlarda esa rezidentlar sonidan ko‘ra eksport shartnomalari, yangi brendlar, intellektual mulk obyektlari va hududiy ish o‘rinlari muhim KPI bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, inson kapitali ushbu modelning markaziy sharti bo‘lib qoladi. Ijodiy qobiliyatni tadbirkorlik ko‘nikmalari, marketing, moliyaviy rejalashtirish, raqamli distributsiya va mualliflik huquqi bilan uyg‘unlashtirmasdan turib, kreativ iqtisodiyotni barqaror tarzda kengaytirish qiyin. Oliy ta’lim va kasbiy ta’lim tizimida kreativ tadbirkorlik, madaniy mahsulot marketingi, turistik tajriba dizayni va intellektual mulkni tijoratlashtirish kabi modullarni rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, 2016–2026-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida shakllangan yangi bosqichni “bozor islohotlari → turizm drayveri → kreativ iqtisodiyot → xizmatlar iqtisodiyoti” zanjiri orqali tushuntirish mumkin. Bu zanjir mamlakatning tarixiy-madaniy aktivlarini yuqori qo‘shilgan qiymat, hududiy daromad va eksport diversifikatsiyasi manbayiga aylantirishga xizmat qiladi. Kelgusi bosqichda turizm, kreativ industriya va xizmatlar sektorini birgalikda qo‘llab-quvvatlaydigan statistik hisob, investitsiya mexanizmi va klaster siyosati yanada mustahkamlansa, O‘zbekiston uchun yangi sifatli o‘sish modeli shakllanishi mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekiston iqtisodiyotida yangi o‘sish manbalari endi faqat an’anaviy tarmoqlarda emas, balki tarixiy merosni zamonaviy xizmat va kreativ mahsulotga aylantira olish qobiliyatida ekanini ko‘rsatadi. Shu bois, turizm, kreativ iqtisodiyot va xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash mamlakatning tashqi iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, hududiy rivojlanishni faollashtirish va inson kapitaliga asoslangan iqtisodiyot sari o‘tishning muhim sharti bo‘lib qoladi.

Kelgusida siyosatning yana bir muhim yo‘nalishi – natijadorlikni chuqurroq o‘lchaydigan statistik va analitik tizimlarni shakllantirishdir. Turizmning yordamchi hisobi (Tourism Satellite Account) hamda kreativ iqtisodiyot hisobi o‘zaro bog‘langan holda yuritilsa, turist sarfining qay qismi mahalliy hunarmandchilik, dizayn, gastronomiya yoki raqamli kontent hisobiga to‘g‘ri kelayotganini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bu esa byudjet qo‘llab-quvvatlashi, hududiy klasterlar va investitsiya loyihalarining samaradorligini dalillarga asoslangan tarzda baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, mavjud jarayonlarda ayrim cheklovlar ham bor. Birinchidan, kreativ iqtisodiyot va turizmning statistik hisobi hali to‘liq integratsiyalashmagani sababli, qo‘shilgan qiymatni aniq o‘lchash qiyin. Ikkinchidan, xizmatlar sektorida yuqori malakali kadrlar, til ko‘nikmalari, dizayn va marketing kompetensiyalari barcha hududlarda bir xil emas. Uchinchidan, tarixiy merosni tijoratlashtirish bilan uning asl madaniy qiymatini saqlash o‘rtasida ehtiyotkor muvozanat zarur. Bu muammolarni inkor etmasdan, aksincha, ularni dasturiy tarzda hal qilish rivojlanish modelining barqarorligini ta’minlaydi.

Turizm va kreativ iqtisodiyotning raqamli o‘lchami ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy turist axborotni raqamli platformalar orqali oladi, xizmatlarni onlayn bron qiladi, tajriba haqida ijtimoiy tarmoqlarda fikr bildirib, kreativ mahsulotlarni marketpleyslar orqali sotib oladi. Demak, raqamli servislar turizm va kreativ iqtisodiyot o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalishda milliy brendlarni xalqaro platformalarga olib chiqish, muzey va tarixiy obyektlar uchun raqamli kontent yaratish, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini elektron savdo kanallari orqali eksport qilish kabi imkoniyatlar, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi.

Bunda xususiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Turizm va kreativ industriya aksar hollarda katta davlat sarmoyalaridan ko‘ra, kichik va o‘rta biznes, startaplar, oilaviy korxonalar, dizaynerlik ustaxonalari, gastronomik loyihalar, mehmon uylari va raqamli platformalar orqali tezroq rivojlanadi. Davlatning vazifasi bunday tashabbuslarni to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqarish emas, balki huquqiy aniqlik, soliq rag‘batlari, infratuzilma, marketing va moliyaviy instrumentlar orqali qulay muhit yaratishdan iborat. Shu sababli, kreativ parklar, maxsus dasturlar va klasterlar faqat imtiyoz maydoni emas, balki biznes-modellar sinovdan o‘tadigan institutsional platformalarga aylanishi kerak.

Amaliy jihatdan qaralganda, turizm va kreativ iqtisodiyotning birlashuvi hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni yumshatish imkonini ham beradi. Toshkent shahrida xizmatlar va raqamli infratuzilma ustun bo‘lsa, Samarqand, Buxoro va Xivada madaniy meros va turistik tajriba kuchli aktiv hisoblanadi. Farg‘ona vodiysi hunarmandchilik va gastronomik yo‘nalishlar, Qoraqalpog‘iston va Xorazm esa muzey, ekoturizm va festivallar, Qashqadaryo va Surxondaryo folklor asosida kreativ mahsulot yaratish uchun alohida salohiyatga ega. Shuning uchun hududiy rivojlanish strategiyalarida “bir xil model” emas, balki hududning tarixiy, madaniy va xizmatlar bazasidan kelib chiquvchi differensial yondashuv ustuvor bo‘lishi lozim.

Ertasi ulug‘vor, buyugim o‘zing



Zarifa ERALIYEVA

ULUG‘ KUN
(faxriya)

Ilk tamal toshingni qo‘yganlar haqqi,
Vatanim – sha’nim, deb suyganlar haqqi,
Hurlikning bol ta’min tuyganlar haqqi
Bir dildor so‘z izlab bedorman, Vatan!

Joni jon yurtiga fidolar haqqi,
Ulug‘lar qo‘l ochgan duolar haqqi,
El boshiga qo‘ngan humolar haqqi
Avval bir bor edim, ming borman, Vatan!

Mehrini onamday gul qilib ekkan,
Otamday topganin o‘rtaga to‘kkan,
Mardlari or uchun jonini tikkan
Ildizi ming quloch chinorman, Vatan!

G‘animlar bo‘g‘zida hamon cho‘g‘, yonish,
Payt poylab sanchmoqqa qayrab turar nish,
Men esa baralla qilurman xonish –
Tengsiz qudratingga iqrorman, Vatan!

Ozorlar unutmas, og‘rig‘i sim-sim,
Bu ko‘zlar nur kutib qoraygan tim-tim.
Ayting, endi qandoq yashab bo‘lar jim –
Qishdan omon chiqqan bahorman, Vatan!

Ne ulug‘ kun bu kun, ufqda oq nur...
Nur ichra elim, deb bir o‘g‘lon kelur.
O‘v-v, uning ruhida Temur uyg‘onur –
Men shunday tolega chin yorman, Vatan!

Muhabbat merosdir Momo Havodan,
Ishq so‘rab o‘tindim qodir Xudodan,
Judo aylamagil shu yurt – ma’vodan,
Qancha suysam shuncha xumorman, Vatan!

Bag‘ringda tonglar ham nozlanib otar –
Quchsa quchog‘iga g‘unchalar botar,
Illo, quzg‘unlardan yetmasin xatar –
Sadqayi joningman – tumorman, Vatan!

So‘z – hikmat bulog‘i, dardni aritgay,
Oy – Tangri chirog‘i, tunni yoritgay.
Bir quvonch ming yillik g‘amni qaritgay,
Madhingga bitilgan ash’orman, Vatan!

Poyingga kimlar gul, kimlar tosh otur,
Bilmayin ruhdagi sherni uyg‘otur.
Tog‘ desam, yonboshlab Alpomish yotur –
Ajdodlardan meros shahd, orman, Vatan!

Yaxshilar to‘yingni to‘ylab kelurlar,
Bo‘ylarin bo‘yingga bo‘ylab kelurlar.
Vale, badniyatlar o‘ylab kelurlar...
Ona burgut misol hushyorman, Vatan!

Elim deb bag‘ri ming kuyugim o‘zing,
Ertasi ulug‘vor, buyugim o‘zing.
Hammadan, hammadan suyugim o‘zing,
Buyur, xizmatingga tayyorman, Vatan!

XOTIRA BOG‘IDA

Nurafshon shahrida besh farzandi urushdan qaytmagan Zulfiya aya Zokirova xotirasiga yodgorlik majmuasi bunyod etildi.

Assalom, vafoning buyuk timsoli,
Bardoshi tog‘larni tiz cho‘ktirgan zot.
Sen – sabr ahlining oftobjamoli,
Sen – sabot madhiga bitilgan bayot!

Urushlar tinar-u ketmaskan dog‘i,
O‘chirolmas ekan yillar sayqali.
Sog‘inch faryodi u, ogohlik bongi –
Jangchi onasining mahzun haykali!

Ona, qadding ko‘tar, egmagil boshing,
Besh o‘g‘lon sen uchun fido qildi jon.
Tegrangda to‘rt kelin – oy-u quyoshing,
Sen mehr qo‘rg‘oni, asl qahramon!..

Keldi zangor fasl – Hurlik bahori,
Bulbullar qaytdilar chamanzoriga.
Tonglarni uyg‘otar baxtning ifori –
Oshiqlar gul tutar suygan yoriga!

Bo‘ldi, bas, armondan so‘z ochma, ona,
Bolangday ko‘z ochdi poyingda chechak.
Yigitlar qo‘riqlar yurtni mardona –
Endi beva qolmas biror kelinchak!

Endi zamon yangi, orzular yangi,
Dunyoga bo‘y tenglar yangi hur avlod!
Har ohang, har sozda tinchlik jarangi,
Onalar bolam, deb chekmaslar faryod!

Gar taqdir bir lahza ortga qaytsa-yu,
Tilaging nima, deb bersalar savol.
Dunyo tinch bo‘lsin, deb pichirlaydi u,
Urush bo‘lmasin, deb shivirlar ayol!

...Bu bog‘da sog‘inchlar tosh qotgan mangu,
Bunda ibrat yashar, bunda or yashar.
Millat botirlarin tuqqan ona u,
Shundaylar bor uchun omondir bashar!

TAVALLO QILING

Shukr, Tangrim meni ayol yaratdi,
Yulduzlar ichinda hilol yaratdi.
So‘zning tuprog‘idan loy qormoq qismat –
Meni she’r dardida kulol yaratdi.

Sevdim, osmon qadar yuksaldim beshak,
Sevildim, qay dilga parvonalar yor.
Axir, ishq Xudodir, Xudo – ishq demak,
Bu otash ko‘nglimda behishtga yo‘l bor!

Dedim, bog‘lar xazon ichra ham go‘zal,
Qor bossa ham tog‘lar buyukdir, ishon.
Lek Ayol gullasa, bog‘dan ne asar,
Ayol dast turganda tog‘dan ne nishon?!

O, qanchalar buyuk mening gul qavmim,
Yuragim shodlanib kuylamay nechun?!
U beshik tebratsa ulg‘ayar Vatan,
Alla aytganida uyg‘onar ochun!

Shunchaki taqdirmas Ayol yaralmoq,
Shunchaki qarz emas gul tutmoq unga.
Tavallolar qiling, shukr eting har choq,
Tangri Ayol zotin yaratgan Kunga!..

HOLAT

Bugun nogoh cho‘kkan tog‘dayman,
Na bemorman va na sog‘dayman.
Huvillagan kuzgi bog‘dayman –
Sizni juda sog‘indim, ona!

Otashlarda yondim, o‘rtandim,
Ozorlarga ko‘ndim, o‘rgandim.
Ayting, so‘ng bor qachon ko‘rgandim –
Sizni juda sog‘indim, ona!

Siz bir yonsiz, dunyolar bir yon,
Voh, dunyoga dil berdim qachon?!
Kiprigimda bir tomchi armon,
Sizni juda sog‘indim, ona!

Ishqqa umrim berdim – bor bo‘ldim,
O‘tinch, o‘kinchlarga yor bo‘ldim,
Oxir faqat sizga zor bo‘ldim,
Sizni juda sog‘indim, ona!

Menga sizdek kuygan bormi hech,
Yo minnatsiz suygan bormi hech,
Jonimni baxsh etsam, demang, kech...
Sizni juda sog‘indim, ona!..

OGOHLIK

Bandasan, bandaga diling ne tilar,
Bil, olam abadiy xona bo‘lmaydi.
Otang ketsa, hayot otalik qilar,
Onang ketsa... hech kim ona bo‘lmaydi!

EY DO‘ST...


Ey do‘st,
Diydor yo‘li cho‘zilmadimi,
O‘rtada bir nima uzilmadimi?!
Bemavrid aytilgan bitta so‘zni deb
Ming yillik ko‘priklar buzilmadimi?!.

MENGA SO‘Z BER...

Qo‘y, minnatli ishqingni, taqdir,
Ko‘r, dilimni mung yer, hasrat yer.
Mayli, baxtga yetsin o‘zgalar,
Menga bedor So‘z ber, Hayrat ber!..

VOQEIY HIKOYA

DEVOR ORASIDAGI KITOB



Xurshid DO‘STMUHAMMAD

Ming to‘qqiz yuz o‘ttiz sakkizinchi yilning boshlari, ayni qish chillasi edi. Ayozdan-da sovuq mish-mish tarqaldi: yozuvchi Julqunboy qamoqqa olinibdi! Xabar kimning qulog‘iga yetsa, birinchi aytar so‘zi “Yo‘g‘-e!” edi. Qanday qilib? Odamlar qo‘ldan qo‘ymay o‘qiyotgan “O‘tkan kunlar” ro‘monini yozgan adib qamaladimi?! Shubha-gumonlar shu qadar bolaladiki!.. Ivir-shivirlar shu qadar urchidiki!.. Yozuvchi qamalsa, u odam yozgan kitobning taqdiri nima kechadi? Ana shu savolga javob yo‘q edi.

Abdurahmon ikki kun-u uch tunda o‘qib bitirdi ro‘monni. Azbaroyi boshqa odamga aylanib qolgandek bo‘ldi. O‘zini qo‘yarga joy topolmas, duch kelgan katta-kichikka mutolaa taassurotlaridan tug‘ilgan his-hayajonini hikoya qilishdan charchamasdi. Kitobni na uyda, na ishda qo‘ldan qo‘ymas, dam Otabekning Mirzakarim qutidor xonadonida o‘tgan mehmondorchilik tasvirini qayta o‘qir, dam Kumushbibining kelinlik tasviriga xayoli qochar, yanayam muhimi, arab yozuvini o‘rgangach, hijjalay-hijjalay birinchi o‘qigan kitobi ham “O‘tkan kunlar” edi!

Kitobni oq surpga o‘rab, belbog‘iga qistirib yurdi, nazarida, shunday qilsa, hech kim uni topolmaydigandek edi.

Yolvorib-o‘tinib so‘raydiganlar bor, bir-ikki kunda qaytaraman deb, holi-joniga qo‘ymaydiganlar bor. Chunki kitob sotuvga chiqarilmagan, faqat kutubxonalarga tarqatilgan edi. Yo‘q, Abdurahmon kitobni kimgadir bersa, ichi, ichiga qo‘shilib dunyo huvillab qoladigandek bo‘lardi. Nima, ikki qo‘llab kitobni olib borib topshiradimi?! Kutubxona xodimi uyiga keldi, kitobni zudlik bilan qaytarishini talab qildi, Abdurahmon esa turli bahonalar bilan galga soldi.

Uyqusi qochdi. Xayoli buzildi. Shu kunlarda tarqalgan navbatdagi ovoza avvalgisidan-da sovuq edi:

– Julqunboy tomonidan yozilgan “O‘tkan kunlar” kitobi kimning qo‘lida bo‘lsa, zudlik bilan kutubxonaga qaytarsin! Kimda-kim kitobni qaytarmasa...

Abdurahmon qulog‘ini kar, ko‘zini ko‘r qilib oldi, biroq kitobni qo‘lda ko‘tarib yurish yoki uyda saqlash yanayam xavotirli. U kun o‘yladi, tun o‘yladi. Eshik tiq etsa, “Kelishdi!” degan vahimadan yuragi o‘rtanib-la ketardi. Ustiga-ustak, u ayoli, ikki qizi bilan yashayotgan xonadon rahmatli otasining uzoq bir jiyani Asqar akaga qarashli, ya’ni, o‘zining bu manzilda yashashi ham omonat edi.

Uyda hech kim yo‘qligini poylab, butun uy-hovli devorini ko‘zdan kechirdi, shunda og‘ilxona devorining qo‘shni hovliga tutash bir quloch keladigan joyi negadir qo‘sh sinchli ekanini ko‘rdi. “Shu yerga!” dedi o‘ziga-o‘zi. Yarim tunda bordi-da, paypaslamay-netmay, oq surpga o‘ralgan “O‘tkan kunlar”ni odam bo‘yidan balandroq qo‘sh sinch devor orasiga tashladi.

Oradan ikki kun o‘tdimi-yo‘qmi, “kutilgan mehmon”lar bir guruh bo‘lib keldi: mahalla oqsoqoli, uchastka noziri, kutubxona xodimi, yana ikki notanish kimsa. Kutilgan mehmonlarning savollari ham kutilgan edi.

– Vahobov Abdurahmon siz bo‘lasizmi?

– Ha, men.

– Kutubxonadan Julqunboyning qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” ro‘monini olgan ekansiz? Tasdiqlaysizmi?

– Tasdiqlayman. Olgandim.

– Nima sababdan uni kutubxonaga qaytarmadingiz?

Abdurahmon necha qayta takrorlab, puxtalab qo‘ygandi, biyron-biyron javob qaytardi:

– U kitobning bahridan o‘tdim.

– Qanday qilib?

– Yoqib yubordim.

– Nima sababdan yoqdingiz? O‘qib tugatgan edingizmi?

– Endigina o‘qiy boshlagandim. To‘satdan qulog‘imga chalindi. U yozuvchi xalq dushmani ekan. Xalq dushmani yozgan kitob nafaqat kishilarning xonadonida, balki kutubxonada ham saqlanishga nomunosib, degan qarorga keldim.

– Barakalla! – deb yubordi “notanish”ning biri. – Tushungan odam ekansiz. Faqat bizga aytgan gaplaringizni tilxat o‘rnida yozib berasiz.

Abdurahmon qog‘oz-qalam olib, shoshmay yozdi. “O‘tkan kunlar”ni nima qilgan bo‘lsa, “aynan” qog‘ozga tushirdi. Keluvchilar uni qo‘lma-qo‘l olib ko‘z yugurtirishdi. Abdurahmon yengil tortgandek nafas rostladi. Biroq...

– Imzosiz tilxat qabul qilinmaydi, – dedi uchastka noziri dimog‘ida to‘ng‘illab. Abdurahmon varaqning adog‘iga imzo chekdi.

– Endi, – dedi “notanish”ning ikkinchisi, – o‘rnatilgan tartibga ko‘ra, uyni tintuv qilamiz.

Ochig‘i, Abdurahmon buni kutmagandi. Yuragi shuv etib ketdi. Sir boy bermay, xonadon sohibi Asqar akaga zimdan nigoh tashladi...

* * *

Abdurahmon oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilish idorasida ishlar edi. Ishda, ko‘chada, uyda, mahalla-ko‘y – qayerda to‘rt-besh kishi to‘plansa, albatta, Julqunboy, uning “O‘tkan kunlar”i va adibning taqdiri haqida so‘z ochilar, taxminiy, uzuq-yuluq gaplar, ro‘mon voqealaridan gap ochilsa, hayajon to‘la taassurotlar tugamasdi. Abdurahmonning ichi yig‘ilib yotgan taassurotlardan qaynab ketar, u ham suhbatlarga qo‘shilib, asar haqidagi o‘ylaganlarini o‘rtoqlashgisi kelar, lekin ko‘ngil mayli va tiliga erk bersa... odamlar unga shubha bilan qarayotgandek bo‘lib tuyular, qo‘sh sinch orasida jon saqlayotgan ro‘monni oshkor qilib qo‘yadigandek xavotirga tushardi. Abdurahmon o‘z qo‘li bilan yashirgan “xazina”ni butkul unutishga qaror qildi.

Adibning ism-sharifini, kitobni unutgandek, xayol qatlaridan chiqarib tashlagandek yurdi go‘yo, biroq bo‘sh qoldi deguncha, oyog‘i ko‘mirxona va o‘tinxonaga aylantirilgan sobiq molxona tomonga tortar, qo‘rqa-pusa va



zimdan tasodifan qo‘sh sinch qilib urilgan burchak devorni ko‘zdan kechirar, devor o‘sha-o‘sha o‘zgarishsiz turganini ko‘rgachgina ko‘ngli joyiga tushar, xotirjam tortardi.

* * *

“Abdulla Qodiriy-Julqunboy otilibdi!” – degan ovozani ilk bor eshitgan joyida Abdurahmon yig‘lab yubordi. Ko‘z yoshlarini tiya olmadi. O‘zi hayotda bir bor ko‘rmagan, uchratmagan, biroq ro‘monni, undagi bir-biridan ajoyib va g‘aroyib tasvirlar, ayniqsa, yaqin tug‘ishgan odamlardek qondosh-jondoshiga aylangan qahramonlarni yaratgan insonning “xalq dushmani” degan qora tamg‘a ortidan qatl etilishi nafaqat Abdurahmonni, balki yuzlab, minglab oq ko‘ngilli odamlarni larzaga soldi. Bu bilan Julqunboydek adibga odamlar qalbidagi mehr-muhabbat sovumadi, balki yanayam harorati ortdi. Hatto, ayrimlar qasdma-qasdiga adib va uning asari haqida namoyishkorona suhbatlasha boshladilar. “O‘tkan kunlar”ni tunda yashirincha o‘qiydiganlar ko‘paydi. Shunda Abdurahmon qo‘sh sinch orasidan oq surpga o‘ralgan kitobni olishni, uni qayta-qayta o‘qishni istadi, lekin zamon notinch edi, tahlikali edi. Sabr qildi.

Shunday kayfiyat 1941-yilning ayni yozida urush boshlangan kunlarga qadar o‘zgarmadi.

* * *

Abdurahmon frontga otlanar ekan, bir ko‘ngli ayoliga sirni ochmoqqa og‘iz juftladi, biroq o‘ylab qoldi: bu yog‘i hayot qanday kechadi, noma’lum. Ayolini tahlikada qoldirishni istamadi. Bir hisobda to‘g‘ri qilgan ekan, hali jangga kirishga ulgurmay olgan ikkinchi xatida ayoli xat yo‘llab, ro‘zg‘ordan qiynalib qolganini aytib, vaqtincha bo‘lsa-da, ota-onasining xonadoniga ko‘chib o‘tishga izn so‘radi. Abdurahmonning ruxsat berishdan o‘zga iloji yo‘q edi. Janglar davom etar, u xotiniga, qizlariga yozgan xatlarida jang tafsilotlari, o‘zining sog‘-omonligi qolib, takror-takror, “Asqar akaning uy-joyi o‘z joyidami?” – degan mazmunda so‘rab qo‘ymas, “Borib, o‘zimiz yashagan uylardan xabar olib kelinglar”, deb tayinlashdan charchamas, biroq buning sirini ochmasdi.

Dnepr daryosi kechuvi sertalofat bo‘ldi. Tungi shturm tongga qadar davom etdi, aksiga olib, qo‘shin narigi qirg‘oqqa o‘tganda asosiy qism bilan aloqa uzilib qoldi. Aloqa o‘rnatish hayot-mamot masalasiga aylandi. Manaman degan aloqachilarning harchand urinishlari besamar ketdi. Shunda omad Abdurahmonga kulib boqdi – uning sa’y-harakati bilan aloqa tiklandi!

Toshkentning Chaqar mahallasidan chiqqan o‘zbek jangchisining ko‘ksini bezagan “Qizil yulduz” ordeni ham unga ana shu xizmati uchun ravo ko‘rilgan edi.

* * *

Ne-ne janggohlardan omon-eson chiqqan Abdurahmon Berlin shahrini ishg‘ol etishda ishtirok etgach, ona yurtiga qaytdi. Oilasi, farzandlari quchog‘iga joni omon holda qaytganiga bir suyunsa, Chaqarga – Asqar akaning xonadoniga yetib kelib, o‘z vaqtida unga va uning oila a’zolariga boshpana bergan xonadonni o‘sha-o‘sha ahvolda ko‘rib o‘n suyundi. Faqat oqibatli qarindosh Asqar aka bandalikni bajo etgan ekan.

– Adam vasiyat qildilar, – dedi o‘g‘li Muhiddin, – Abdurahmon akang urushdan qaytsa, farzandlari bilan shu yerdagi uyida yashasin.

* * *

Urushdan keyingi mashaqqatli yillar Abdurahmon oilasi bilan Chaqardagi Asqar akadan meros xonadonda – ikki uy, bir ayvonda istiqomat qildi. Ikki yil o‘tgandi chog‘i. Qadimdan qolgan mahalla uy-joylari buzila boshlandi. Mahalliy aholi uchun shaharning turli mavzelaridan yer maydonlari ajratildi. Abdurahmon akaning o‘y-xayoli qo‘sh sinchli devorda edi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, qariyb o‘n yil o‘tgan bo‘lsa-da, qo‘sh sinch orasiga yashirilgan – oq surpga o‘ralgan “O‘tkan kunlar”, chang-chungni aytmaganda, qanday bo‘lsa, o‘shanday saqlangan edi!

* * *

...Hikoyaning nihoyasini Abdurahmon otaning o‘g‘li Shuhrat Vahobovdan eshitamiz:

– Otam 1985-yilda, 75 yoshda vafot etdilar. Xasta yotgan holda meni yuzma-yuz, uzoq suhbatga tortdilar. Yuqoridagi hikoyani aytib berdilar. Uni qanday aytgan bo‘lsalar, o‘shanday, so‘zma-so‘z qog‘ozga tushirdik. Xotiralarni aytib bo‘lgach, yostiq ostidan oq surpga o‘ralgan kitobni olib qo‘limga tutqazib dedilar: “Mana shu kitob 1925-yilda chop etilgan. Noyob nashr, arzanda nashr. Uni 47 yil mobaynida yashirincha saqlab keldim. Oltin yombini yashirgandek saqladim. O‘zimdan bo‘lak boshqa biror kishiga ko‘rsatmadim, aytmadim ham. Avval qo‘shsinch devor orasida, so‘ngra qalbimda-yuragimda saqladim, asradim. Hatto, Abdulla Qodiriy oqlangach ham, uni o‘zgalarning nazar-nigohiga ravo ko‘rmadim. Biz bandalar o‘tib ketamiz, lekin bu kitob, bu ro‘mon o‘lmaydi...”

Otamdan qolgan ushbu vasiyat xotira va “O‘tkan kunlar” romanining adib hayotining so‘nggi yillarida arab imlosida chop etilgan ushbu nusxasi noyob ilmiy-amaliy ahamiyatga ega, u haqdagi tarixiy voqeani o‘zim 75 yoshga to‘lgan kunim – zamon o‘zgardi, axir – odamlarga hikoya qilib berish niyati tug‘ildi. Mana, nihoyat, niyatimga yetdim...



Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir. Hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir.

Amir TEMUR

TAJRIBA

MAQOM KAPSULASI

So‘nggi yillarda dunyoda ruhiy salomatlik bilan bog‘liq kasalliklar sezilarli darajada ortib bormoqda. Tadqiqotlar yer yuzida bir milliarddan ortiq inson turli ruhiy salomatlik muammolari bilan yashamoqda, har yetti kishidan biri esa ruhiy buzilishlarga uchraganini ko‘rsatmoqda.



Eldor SHERMANOV,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti rektori, professor

Ayniqsa, depressiya, xavotir, stress va uyqu buzilishlari eng keng tarqalgan kasalliklar qatoriga kiradi. Kovid pandemiyasidan keyin bu holat yanada kuchayib, psixolog, psixiatrlarga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshdi. Mazkur holat tibbiyotda an’anaviy davolash usullari bilan bir qatorda, qo‘shimcha, noinvaziv va xavfsiz terapevtik yondashuvlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi. Shulardan biri musiqa terapiyasi bo‘lib, u insonning hissiy, kognitiv va ijtimoiy holatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy asoslangan davolash usuli hisoblanadi. Dunyo tibbiyotida musiqaga inson ruhiyatini davolovchi eng qadimiy va ta’sirchan vosita sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda musiqa terapiyasi AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya, Kanada va boshqa ko‘plab mamlakatlar shifoxonalarida, reabilitatsiya markazlari va psixiatriya klinikalarida amaliyotga keng joriy qilingan.

Sharq Uyg‘onish davrining buyuk allomalaridan biri, tibbiyot ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino o‘zining ensiklopedik “Ash-Shifo” asarida musiqani nafaqat san’at, balki matematika va tabiatshunoslik bilan bog‘liq ilmiy fan sifatida tahlil qiladi. Asarning musiqaga bag‘ishlangan qismida tovushning paydo bo‘lishi, intervallar, ritm, ohang va ularning inson ruhiyatiga ta’siri ilmiy asosda bayon etilgan. Olimning fikricha, musiqaning insonga ta’siri uning ovoz balandligi, ritmi va ohanglar uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi. U ayrim kuy va ritmlar insonda quvonch, xotirjamlik, tasalli yoki g‘am kabi turli hissiy holatlarni yuzaga keltirishini ta’kidlaydi. Shu sababli, musiqa insonning ruhiy muvozanatini tiklashga xizmat qiluvchi vosita sanaladi.

Zamonaviy tibbiyot nuqtayi nazaridan qaralganda, musiqa eshitish jarayonida bir vaqtning o‘zida inson miyasining bir nechta funksional sohalari – eshitish po‘stlog‘i, limbik tizim, gippokamp, prefrontal po‘stloq va rag‘bat tizimi faollashadi. Natijada dofamin, serotonin va endorfin kabi neyromediatorlar ajralishi kuchayadi, stress gormoni hisoblangan kortizol darajasi esa pasayishi kuzatilgan. Shuning uchun ham yaxshi kuy xotirjamlik, emotsional barqarorlik va ichki tasalli hissini yuzaga keltirishi mumkin.

Biz tavsiya etadigan Maqom kapsulasi – bu dori shaklidagi dizaynga ega bo‘lgan va maxsus tibbiy-estetik tarzda qadoqlangan fleshka ko‘rinishidagi loyihadir. Unda o‘zbek milliy musiqa san’atining eng noyob va durdona asarlari yig‘ilgan.

Milliy musiqamizning yuksak namunalaridan biri bo‘lgan Shashmaqom nafaqat musiqiy meros, balki inson ruhiyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab psixologik va estetik tizim sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Uning shakllanishida qadimgi Sharq musiqa nazariyasi, tasavvuf falsafasi, maqomshunoslik va tabobat an’analari o‘zaro uyg‘unlashgan. Shu bois, Shashmaqomni insonning hissiy, kognitiv va ma’naviy holatiga ta’sir etuvchi madaniy meros sifatida baholash mumkin.

Shashmaqomdagi har bir maqom muayyan emotsional kayfiyatni ifodalash xususiyatiga ega. Masalan, “Buzruk” maqomi tantanavorlik, ma’naviy yuksalish va ichki barqarorlik tuyg‘usini uyg‘otishi bilan tavsiflanadi. “Rost” maqomi muvozanat, ishonch va xotirjamlik hissini kuchaytirishi mumkin. “Navo” insonning ichki kechinmalari, mehr-muhabbat va mulohaza holatlarini musiqiy ifoda etadi. “Dugoh” va “Segoh” esa nozik hissiy kechinmalar, ruhiy poklanish va ta’sirchanlik bilan bog‘liq, deb qaraladi. “Iroq” maqomi Shashmaqom turkumining eng murakkab va falsafiy mazmunga boy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu tavsiflar asosan maqomshunoslik va estetika an’analariga tayanadi; ularni klinik davolash samarasi sifatida emas, balki emotsional ta’sir xususiyati sifatida baholash lozim.

Tasavvuf ta’limotida musiqa inson qalbini poklash, diqqatni jamlash va ma’naviy kamolotga erishish vositalaridan biri sifatida talqin qilingan. Maqom ijrosidagi ohanglar, she’riyat va ritmning uyg‘unligi insonni turmush tashvishlaridan ma’lum muddat chalg‘itib, ichki ruhiy muvozanatni tiklashga xizmat qiladi. Zamonaviy psixologiyada bunday holat emotsional regulyatsiya, kognitiv qayta yo‘naltirish sifatida izohlanadi.

Neyrofiziologik tadqiqotlar sekin sur’atli, muvozanatli va takrorlanuvchi musiqiy kompozitsiyalar yurak urish tezligi, nafas olish ritmi hamda avtonom asab tizimi faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini qayd etadi. Shashmaqomning ko‘plab qismlari aynan shunday xususiyatlarga ega bo‘lgani uchun uni stressni kamaytirish, ruhiy dam olish va psixoemotsional reabilitatsiya dasturlarida qo‘shimcha vosita sifatida o‘rganish istiqbolli hisoblanadi.

Hozirgi vaqtgacha Shashmaqomning klinik jihatdan depressiya, xavotir yoki boshqa psixik kasalliklarni mustaqil davolashini isbotlagan keng qamrovli ilmiy izlanishlar mavjud emas. Biroq jahon musiqa terapiyasi bo‘yicha olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar milliy va an’anaviy musiqalarning emotsional holat, stress va hayot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlagan. Shu bois, o‘zbek milliy musiqa san’atining durdona asarlari ham milliy musiqa terapiyasining ilmiy asoslarini ishlab chiqish uchun katta manba bo‘lib xizmat qiladi.

Biz taqdim etayotgan yigirma ikkita musiqiy asarni o‘zida joylashtirgan Maqom kapsulasi ham inson ruhiy va psixologik salomatligiga ijobiy ta’sir etuvchi preparat sifatida tavsiya etilgan. Ushbu preparatning inson ongi va tafakkuriga ta’siri Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti professor-o‘qituvchilari va yosh olimlari tomonidan dastlabki ilmiy tahlilga tortilgan.

Yigirma ikkita maqomning tinglovchi ongiga ta’siri va eshitilish vaqtini o‘rganib, bu san’at durdonalarining asab tizimini yaxshilashi, insonga ruhiy xotirjamlik baxsh etishi, stressni yengillashtirishi va hissiy muvozanatni saqlashga yordam berishini aniqladik. Ba’zi maqomlar tinglovchiga tasalli bersa, ba’zilari ko‘tarinki kayfiyat, o‘ziga xos raqsona xarakter va marshona g‘ayrat bag‘ishlashi tufayli inson kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim kuylarning bir tekisda almashuvchi ritmik figurasi qon-tomir aylanishini biroz tezlashtiradi, motivatsiyani oshiradi va jismoniy mashqlar paytida ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi, hatto insonning aqliy darajasini oshirishga yordam beradi. Masalan, “Qashqarchayi rok” vatanparvarlik va ruhiy tasalli tuyg‘ularini uyg‘otishi ilmiy asoslangan. “Ey, dilbari jononim” esa oddiy tinglovchi qalbida muhabbat tuyg‘usini jo‘shqinlantirib, baxt garmonini ishlab chiqaradi. Mashhur “Munojot”ning tafakkurga cho‘mdirib, ilohiy hissiyotlar orqali inson munojotini ifodalab, qalblarni yumshatishi isbotlandi.

O‘zbek milliy san’ati durdonalari va maqomlarimiz inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi ko‘p qirrali musiqiy tizim bo‘lib, uning psixologik ta’siri estetik idrok, emotsional regulyatsiya, neyrofiziologik reaksiyalar va milliy-ma’naviy qadriyatlarning o‘zaro ta’siri orqali namoyon bo‘ladi. Hozirgi kunda institutda tashkil etilgan “Musiqaterapiya” ilmiy laboratoriyasida shunga o‘xshash barcha milliy kuy va ashulalarimizning inson ongiga ta’siri maxsus nevropatologlar ishtirokida bosqichma-bosqich sinovdan o‘tkazib borilmoqda. Bu esa, albatta, kelajakda milliy musiqalarimizning terapevtik xususiyatlarini to‘liq o‘rganib, inson ruhiyati uchun haqiqiy shifobaxsh tabiiy dori vositasi sifatida keng jamoatchilikka tavsiya etishga turtki beradi.



“O‘zbek xalqining ulkan allomasi Yunus Rajabiyning musiqa san’ati borasida qilgan mehnati, hech bir mubolag‘asiz, buyuk ustozlar mehnati bilan barobar turadi.

Erkin VOHIDOV

Boshlanishi 1-sahifada.

Yuqori sinf o‘quvchilari bu qissalarni qayta-qayta o‘qir, bir-biriga so‘zlab berardi. Erta-indin oliy o‘quv yurtiga kirish orzusida yurgan yoshlar uchun Muqaddas bilan Sharifning taqdiri juda qiziqarli edi. O‘qishga kirish jarayonidagi adolatsizliklar, Sharifning unga qarshi turishi yosh qalblarni larzaga solar, “nahotki, shunaqa bo‘lsa” degan o‘yga toldirardi. Boshqacha aytganda, ular Muqaddas bilan Sharifning tashvishlarini o‘z tashvishi kabi qabul qilar, sevgisiga havasda edi.

Odil Yoqubov degan yozuvchini ana shunday o‘tli, haroratli asarlar orqali tanigan edik. Shundan so‘ng “Bir felyeton qissasi”, “Qanot juft bo‘ladi”, “Billur qandillar” qissalarini, bir necha hikoyalarini, “Er boshiga ish tushsa...” romanini o‘qidim. Ularni o‘qiganim sari yozuvchining o‘zini ko‘rish, suhbatlashish ishtiyoqi kuchayib boraverdi...

1982-yilda Odil Yoqubov “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasiga bosh muharrir etib tayinlandi. Men bu paytda tahririyatda mas’ul kotib bo‘lib ishlardim. 1989-yilgacha, ya’ni, Odil aka Yozuvchilar uyushmasining raisi etib saylanguncha birga ishladik. Shu yillar davomida bir paytlar men uchun qo‘l yetmas cho‘qqi bo‘lib tuyulgan mashhur yozuvchini kashf etdim. Kashf etganim shu bo‘ldiki, Odil Yoqubov ham o‘zimizga o‘xshagan oddiy, bir qarasang sodda, bir qarasang bag‘rikeng, ko‘ngli yumshoq, bir qarasang qattiqqo‘l, umuman olganda, g‘oyat beg‘ubor, bir inson uchun zarur bo‘lgan barcha xislatlarni o‘zida jamlagan daryodil, ulug‘ inson ekan. U kishi ishonuvchan edi, o‘zining ko‘ngli toza, begidir bo‘lgani uchun boshqalarni ham shunday deb o‘ylardi. Hamma ham shunday emasligini bilardi, ammo bunga ko‘p e’tibor bermas edi.

Tan olib aytish kerak, Odil aka gazetani o‘qishli qilish, ommaviyligini oshirish uchun butun kuch-qobiliyatini ishga soldi. Gazetaning tili o‘tkir bo‘ldi. Jamiyatning dolzarb masalalari, odamlarni qiynayotgan muammolar dadil ko‘tarildi. Eng asosiysi, gazeta ko‘targan muammolar izsiz ketmadi, ularning yechimi topilmaguncha tahririyat e’tiboridan tushmadi. “Rasmiy javob” degan rukn tashkil etilib, muammoli maqolalarga tegishli vazirlik va idoralarning rasmiy javoblarini berib borish yo‘lga qo‘yildi. Gazetaning adadi bir millionga yaqinlashdi. Odamlar gazetani izlab o‘qiydigan bo‘ldi.

Odil Yoqubov gazetaga kelguncha nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Ittifoqda, bir qator xorijiy davlatlarda taniqli yozuvchi edi. Zero, adibning bir necha asarlari, xususan, “Ulug‘bek xazinasi”, “Diyonat”, “Ko‘hna dunyo” romanlari ko‘plab tillarga tarjima etilgan, kitob holida nashr etilgan edi. Shunga qaramay, Odil aka dabdabavozlikni xushlamas, oddiylikni yaxshi ko‘rardi. Yurish-turishi, turmush tarzi ham shunday edi. Holbuki, har qancha hashamga u kishining imkoniyati yetarli edi. Buning ustiga, Odil akaning to‘rtala o‘g‘li ham tuzukkina joylarda ishlardi. Odil akaning bitta “kamchiligi” bor edi – tanqidni uncha ko‘tarolmas, qoni qaynab ketardi.

Bunday holatni gazeta haqida tanqidiy fikr aytilganda ham sezganman. Yozuvchilar uyushmasida bo‘ladigan yig‘ilishlarda yoki boshqa biron joyda, gazeta haqida ozgina bo‘lsa-da, tanqid bildirilsa, “avval o‘zlari shunday gazeta chiqarib qo‘ysin, keyin gapirsin”, derdi. Jahli chiqqani yuz-ko‘zidan bilinib turardi...

Odil aka bosh muharrir sifatida gazeta pozitsiyasini qattiq himoya qilardi. Bir kuni Odil akaning xonasida edik, hukumat telefoni jiringladi. Odil aka go‘shakni ko‘tarib, salom berdi va Falonchi Pistonchiyevna, yaxshimisiz, deb hol-ahvol so‘radi. Qo‘ng‘iroq qilgan tomondan jo‘yali gap bo‘lmadi chog‘i, Odil akaning rang-ro‘yi, gapirish ohangi ham o‘zgara boshladi. Go‘shakka xuddi oldida bir odam o‘tiripti-yu, shunga zahrini sochganday gapirdi: “Nima bo‘pti shunga? Buning nimasi yomon? Nimasi noto‘g‘ri?..” Go‘shakdagi ovoz balandroq eshitila boshlandi. Odil aka u dedi, bu dedi, ammo suhbatdoshining ovozi tinmasdi. Bir mahal Odil aka: “E, menga qarang, bilganingizni qiling, osmon qo‘lingizda bo‘lsa, tashlab yuboring”, dedi-da, “sharaq” etkazib go‘shakni qo‘ydi. Aslida, go‘shakni qo‘ydi emas, telefon apparatiga urdi, desam, to‘g‘riroq bo‘ladi. O‘rnidan turib, xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Men nima deyishni, nima qilishni bilmayman.

“– Kunimiz kimlarga qoldi, a?!” Menga gapirdimi, o‘ziga o‘zi gapirdimi – bilmadim.

O‘sha yillari oddiy xodimdan tortib bo‘lim mudirlari, mas’ul kotib, bosh muharrir o‘rinbosari va bosh muharrirgacha – barchaga tinmay qo‘ng‘iroq qilaveradigan, mening ijodimni qachon chiqarasizlar, deb so‘rayveradigan mualliflar bo‘lardi. Shunday mualliflardan biri Odil Yoqubovga tanish ekanmi yoki kimdir tavsiya qilganmi, bir maqola (aslida, maqola deb ham bo‘lmasdi) beribdi. Odil aka meni chaqirib, shuni bir narsa qilinglar, gazetani biron joyiga qo‘yib yuboring, dedi. O‘qib ko‘rib, ensam qotdi. “Bir narsa qilish” qiyin edi. Ishlab, epaqaga keltirish uchun qaysi xodimga berishni o‘ylab, bir qarorga kela olmadim. Bilamanki, bunga hech kim rozi bo‘lmaydi. Ertasi kuni Odil akaning oldiga kirdim.

– Buni hech narsa qilib bo‘lmaydi, – dedim.

Bosh muharrirning peshonasi tirishdi.

– Shuni men bilmaymanmi? – dedi. – Shuning uchun bir narsa qilinglar, dedim-da. Sa’dullagami, Yaqibjangami bering, lavi-lunjini to‘g‘rilasin. Shu qistaloqdan meni qutqaringlar.

Shunday talabchan odam, o‘zining iborasi bilan aytganda, ba’zan “ustupka”ga borardi. Hozir aniq esimda yo‘q, o‘sha narsani Yoqubjon Xo‘jamberdiyevmi, Sa’dulla Hakimmi “bir narsa qildi”. Keyin men ko‘rdim. Oxiri, o‘sha narsa gazetada chiqdi. Odil aka ham so‘ramay qo‘ydi... “Xudoga shukur, qutuldik shu xira pashshadan”, deb xursand bo‘lib yurdim. Xursandligim uzoqqa bormadi. Bir kuni kotiba hovliqib xonamga kirdi.

– Tez yuring, Odil aka sizni so‘rayapti. Juda darg‘azab, – dedi.

Hayron bo‘ldim. Nima bo‘ldi ekan, tinchlikmikan? Ming bir xayol bilan bosh muharrir xonasiga kirdim. Chindan ham Odil aka g‘azab otiga mingan, ikki qo‘lini orqasiga qilib, asabiy holda u yoqdan bu yoqqa borib kelayotgan edi. Kirishim bilan salom yo‘q, alik yo‘q, zahrini sochdi.

– Qanaqa odamsiz o‘zi?! Nega meni noqulay ahvolda qoldirasiz? – dedi.

Men hech narsaga tushunmadim. Bosh muharrir qo‘lini paxsa qildi:

– Anavi qistaloq maqolamni bermayapti, deb yuqoriga shikoyat qipti. Hozir manovi telefondan (hukumat telefonini ko‘rsatdi) qo‘ng‘iroq bo‘ldi, – keyin menga yaqinroq keldi-da, ovozini pasaytirib, ammo alam bilan gapirdi. – Shular oldida yuzim shuvit bo‘lishini istaysizmi?

– Odil aka, qaysi materialni aytyapsiz o‘zi? – dedim.

– Nimaga garangsiraysiz, o‘sha xira pashshani aytyapman. Otiyam esimda yo‘q. Bir oy bo‘ldi-ku, uning narsasini sizga berganimga.

– Axir, u maqola chiqib ketdi-ku, – dedim.

Odil aka xona o‘rtasida taqqa to‘xtadi.

ADOLATLI *adib*



– Chiqdi?! Qachon?

– Ikki son oldin, – dedim va bosh muharrir xonasidagi uzun stolda turadigan gazeta taxlamlarini varaqlab, o‘sha “shedevr”ni ko‘rsatdim. Odil aka bir zum jim qoldi. Nazarimda, ichida o‘sha xira muallifni, unga qo‘shib boya ko‘rsatgan telefondan qo‘ng‘iroq qilgan odamni so‘kayotgan edi.

– A, bu qistaloq, har tomonga shikoyat qilgandan ko‘ra, gazet o‘qisa bo‘lmaydimi?

Bu savolga menda javob yo‘q edi, albatta. Uning o‘rniga boshqa gap aytdim.

– U-ku, o‘qimas ekan, anavilar-chi, ular ham o‘qimaydimi? – dedim Odil akaning asabini buzgan telefonga ishora qilib.

Bosh muharrirning battar ensasi qotdi. Nordon narsa chaynaganday afti burishdi. O‘ziga o‘zi gapirgan kabi shivirladi:

– Sizam haliyam yosh bola ekansiz-da. Ular o‘quvchi emas, buyruqchi. Bildingizmi? – Biroz xotirjam bo‘ldi. – Bo‘ldi, boring ishingizni qiling, – dedi-da, kreslosiga o‘tirdi. Eshikdan chiqayotib ko‘zim tushdi: asabini buzgan telefonga qo‘l cho‘zdi.

...Odil Yoqubov haqida gap ketganda, yana bir voqeani alohida qayd etishni istardim. Chunki bu voqea xususida turlicha fikrlar bildirilib, har xil talqin qilish hollari uchramoqda. Yuqorida ta’kidlaganimdek, Odil aka bosh muharrir bo‘lganidan keyin gazeta sahifalarida turli mavzuda dolzarb masalalar ko‘tarila boshlandi, bahs-munozaralar keng o‘rin oldi. Shunday munozaralardan biri qo‘shiqchilik san’atiga bag‘ishlandi. Ana shu bahs-munozarada qatnashgan shoira Muhtarama Ulug‘ova bir necha ashulalar matnini tanqid qilgan. Ular orasida Sharof Rashidovning ham bir she’ri bor ekan. Tabiiyki, uni na maqola muallifi, na tayyorlagan xodim, na muharrir bilgan. Gazeta chiqqandan keyin boshlandi to‘polon. Kimdir bilib qopti. Markazkomdagi xodimlardan biri Odil akaga qo‘ng‘iroq qilib, bu maqolani kim buyurgan, kim tahrir qilgan, kim bosmaxonaga tushirgan... xullas, hamma jarayonni ko‘rsatuvchi qog‘ozlarni so‘ragan. Har kuni vahima. Bugun uni chaqirgan, ertasi kuni boshqani chaqirgan. Qisqasi, ishda ham, uyda ham halovat yo‘q. Hamma asabiy, bir-biridan cho‘chiydi go‘yo. Tahririyat buzilgan ari uyasiday bo‘lib qoldi. Bunday vaziyat chamasi bir haftalar davom etdi.

Bir kuni Odil akaga bir fikrni aytdik. “Odil aka, juda qiynalib ketdik-ku, jazo bersa bersin, bo‘shatadimi, boshqa qiladimi, mayli, nima qilsayam bir yoqli bo‘lsin, bu ahvol qachongacha davom etadi?” Odil aka nima qilish kerak, deganday yuzlandi. “Menimcha, o‘zlarining oldiga chiqish kerak”, dedim. Odil aka avvaliga ikkilandi. Keyin Sharof Rashidov qabuliga boradigan bo‘ldi. O‘sha kezlar “Dil amri” qissasi haqida Hafiz Abdusamatovning maqolasi bosilgan edi. Shu gazetadan bir nusxa olib, Sharof Rashidov qabuliga ketdi. Butun jamoa qo‘rquv va hayajon bilan kutib o‘tirdik. “Odil aka keldi, – dedi Nafisa opa, – sizni chaqiryapti”. Kirsam, kresloga yastanib o‘tiripti. Odatda, kayfiyati yaxshi bo‘lsa, shunday o‘tirardi. Sezdimki, ishlar joyida. Tafsilotini bilishga qiziqdim, men ham jabrdiydalardan biriman-da. Odil aka gap boshladi:


– Hammasi pastdagi xodimlarning vahimasi ekan. Sharof Rashidovichning xabari ham yo‘q ekan. Men ming istihola bilan “Sharof Rashidovich, kechirasiz, bilmay qopmiz, bolalar yoshlik qipti”, dedim. U kishi hech narsaga tushunmaganday hayron bo‘lib turdi. Men yana qaytardim va yana uzr so‘radim. Shunda Sharof Rashidovich: “Odiljon, men hech narsani tushunmayapman. Nimani aytayapsiz, nima uchun uzr so‘rayapsiz?” dedi. Men bo‘lgan voqeani aytdim. Shunda u kishi kulib yubordi. Odatda, Sharof Rashidovich kamdan kam kuladi. So‘ngra: “E, Odiljon, shunga tashvish chekib yuribsizmi? Yozuvchilarning gazetasi meni ham yozuvchilar qatorida ko‘rib, tanqid qilgan bo‘lsa, nima bo‘pti? Undan keyin, u she’r urush yillari yozilgan, xomroq bo‘lishi mumkin. O‘zimning ham esimdan chiqib ketgan. Hozir ham ashula qilib aytisharkanmi? Siz tashvish chekmang, biron xodimingizga jazo ham bermang. Mening boshqa asarim to‘g‘risida ham tanqidiy fikrlar bo‘lsa, gazetangizda beravering... Borib jamoangizga shu gaplarni ayting”, dedi.

Odil aka yana ham yaxshiroq yastanib oldi. Nazarimda, qanoti bo‘lsa, uchib ketgudek edi. Shundan keyin bu masalaga nuqta qo‘yildi. Tahririyatda ish yana o‘z maromida davom etdi. Gazetada oldingidan-da o‘tkirroq materiallar berila boshlandi.

Shunday xalqparvar, adolatli, diyonatli rahbar, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov bilan birga ishlaganimdan faxrlanaman. U kishining kitoblarini, ayniqsa, o‘zi dastxat yozib bergan ko‘p jildligini bot-bot o‘qib turaman. Va har gal kitobini varaqlaganimda, o‘ziga xos talaffuzga ega tovushini eshitganday bo‘laman...

Mamatqul HAZRATQULOV

RASSOM FIKRLASHI KERAK



Boshlanishi 1-sahifada.

– Suhbatni bir voqeadan boshlasak. Bir kuni o‘rinbosarim Farhod Eminovichni ko‘rgani statsionarga bordim. O‘sha yerda buyuk shoirimiz Abdulla Oripov bilan uchrashib qoldik. Abdulla aka: “Sizga bitta gapim bor. Xalq sizni ijodkor sifatida biladi, hurmat qiladi. Qanaqa holatda bo‘lmang, baribir, bir umr ijodkorligingizni saqlab qolishingiz kerak. Qolgani… endi yolg‘onchi dunyo”, dedi. Shu payt kimdir orqamdan kelib, yelkamga qoqib, “Abdulla akangiz haqiqatni gapiryapti, quloq soling. Men o‘n kundan beri yotibman, lekin biror muxlis telefonda ham xabar olmadi”, dedi. Bu Shuhrat Abbosov edi. Balki o‘sha yillari ko‘rgazmalarim to‘xtab qolganiga ishora qilishgandir. Shundan buyon ijodkor bo‘lib qolish harakatidaman.

Ammo bu degani mas’ul vazifalardan uzlatga chekinish, dunyoga etak silkish degan gap emas. Umuman olganda, ijod va davlat xizmatini bir-biriga zid qo‘yish yaramaydi. Beruniyday daholar ham hukmdorlar qoshiga non so‘rab bormagan, u saroyda bo‘lib, xazinadan ilm-fan uchun, raiyat farovonligi uchun ko‘proq ulushlar ajratilishida jon kuydirgan. Hazrat Navoiyning mol-dunyosi o‘ziga yetmasmidi? Husayn Mirzoning Haq va xalq qoshida manzur bo‘lishida allomaning bemisl zakovati hal qiluvchi rol o‘ynagan. Jadidlar ham oromi-yu qanchadan qancha ijodiy rejalaridan kechib, Turkiston xalqiga yengillik istab, davlat xizmatiga kirgan.

Mening ham zimmamda davlatimiz tomonidan ishonib topshirilgan vazifa bor. Uni vijdonan bajarish kerak. Endi bu har bir odamning, har bir fuqaroning burchi. Badiiy akademiyamizda ijodiy muhit hukmron. Siz aytgan erkinlik kayfiyati ustuvor. Ish jarayonida samimiyat birinchi o‘rinda turadi. “Kursiga o‘tirib o‘zgarib qoldi”, deyishadi ko‘tarilgan odamni ko‘rib. Aslida, uning oldida turgan muammolar avvalgiday yashashga qo‘ymaydi. Mening bir haqiqatim bor: mendan oldingilar ketdi, bir kun men ham kabinetni bo‘shataman; o‘shanda ham bir joydan tuz totganlar bilan uyalmasdan so‘rashishni xohlayman. Birovga ozor bergim, ayniqsa, ijodkorlarning ko‘nglini xira qilgim kelmaydi. Qo‘limdan kelsa, yordam beraman, qo‘limdan kelmasa, xalaqit bermayman. Shunday ishlab kelyapmiz.

Shu bilan birga, ko‘ngilning ham o‘z “topshiriq”lari bor. Ularni yolg‘iz qolganda, ustaxonada oq matoning oldida “ijro etasiz”. Oqlikka termilganda, ming bir xil rang jilolanadi. Bu – taxayyul. U yerda qanchadan qancha voqealar bo‘ladi. O‘zingiz xohlaganingizdek yashaysiz. Yana nima kerak? Men bundan baxtliman. Kimdir muhit yaratib berishini kutish kerak emas, uni o‘zingiz vujudga keltirishingiz lozim. Ijod erkinligi, ijodiy muhit, avvalo, dunyoqarashga bog‘liq. Qarashlar esa, tabiiyki, xilma-xil. Ularni bir qolipga solaman desangiz, katta xato bo‘ladi.

– Ijodkorlik haqida ulug‘ ustozlarning ibratli fikrlarini aytdingiz. Demak, iste’dod tug‘ma bo‘lsa ham, u bilan shug‘ullanilmasa, yo‘qolib qolishi yoki izdan chiqishi mumkin ekan-da.

– Tarbiyalanmagan talantni o‘zani yo‘q daryoga o‘xshataman. U muzliklardan to‘yinib, pishqirib pastga intiladi-da, har tomonga tarmoqlab na odamga, na tabiatga foyda keltirmay, qumliklarga singib ketadi. Iste’dodni sayqallovchi eng muhim omil – mutolaa. Men aslida adabiyot o‘qituvchisi bo‘lishni niyat qilgandim. Badiiy asarlarni sevib o‘qiyman. Hozir ham imkon topishim bilan shoir-yozuvchilarimizning yangi kitoblarini varaqlashga tushaman. Sevimli adibim – Chingiz Aytmatov. Chingiz og‘a bir necha marta ustaxonamga tashrif buyurgan, ko‘p suhbatini olganman. Men baxtli odamman, shunday insonlar bilan ko‘rishish nasib qilgan.

Talabalikning birinchi yilida ustozimiz, O‘zbekiston xalq rassomi, akademik Muhammad Nuriddinov Aytmatov asarlari asosida kompozitsiya yaratishni topshirgan. Bu to‘g‘ri yo‘nalish ekan, endi o‘ylasam. Hozir ham institutda shuni yo‘lga qo‘yish kerak. Shu orqali bo‘lajak san’at vakillarining kitob o‘qishga rag‘batini oshiramiz. Yana san’at va madaniyat yo‘nalishlari uchun oliy ta’limga kirish imtihonlariga inshoni qaytarish kerak nazarimda. Rassom fikrlashi kerak. U ko‘zi bilan emas, ko‘ngli bilan, tafakkuri bilan ishlaydi, ishlashi kerak.

Iste’dodning yana bir tayanchi – milliy va jahon o‘tmishidan, san’at tarixidan boxabarlik. Yoshlar bizning oliygohlarimizga qadam qo‘yar ekan, xalqimiz, davlatchiligimiz tarixini bilishi, o‘zbek san’atining ildizlarini teran his qilishi kerak. Bilganda ham test uchun raqamlarni yodlab olish emas, tarixdan bugun va kelajak uchun kerakli xulosalarni ajratib olishi, asarlarida ana shularni ifodalashi lozim.

Ilmsiz iste’dodning nuri chaqmoqqa o‘xshaydi. Yoshlar bir yarq etishni istaydimi yoki yulduzlarday asriy umr xohlaydimi, o‘zlari hal qila qolsin.

– Katta avlod vakillarining maslahatlari, nasihatlarini aksar yoshlar og‘rinib eshitadi. Gapirish oson-da, deb qo‘yishadi. Ammo bu inson hozirgi yuksak manzilga qaysi yo‘ldan keldi, qanday to‘siqlarni yengib o‘tdi, degan savol har doim ham xayolga kelmaydi. Shaxsiy namuna borasida o‘zingizni qanday baholaysiz?

– Bu o‘rinda aytganiga amal qilishdan ko‘ra, amalini aytish maqsadga muvofiq. Shunda tinglovchining ham hafsalasi pir bo‘lmaydi. Masala – mehnat qilishdan qochmaslik va sabrda. O‘zimning boshimdan o‘tkazganimdan kelib chiqsam, mehnatdan qochmaslik, o‘z ustida ishlashdan to‘xtamaslik kerak. Qanchadan qancha xolstlar yaroqsiz holga keladi, o‘chiriladi, qirib tashlanadi moyli bo‘yoqlar. Ana undan keyin sekin-sekin asar paydo bo‘ladi. Sabr-toqat va muntazamlik shart. To‘xtab qolgan ijodkor qayta qo‘zg‘alishga qiynaladi.

Shuning uchun har kuni bir marta bo‘lsa ham ustaxonamga kirishim, nimadir qilishim kerak. Xitoyning grafikasi bor, “goxua” deyishadi, hozir ko‘proq ana shu uslubni o‘rganyapman. Kechqurunlari mashq qilaman. Juda ham qiyin, lekin ko‘p narsa o‘rganyapman. Bundan tashqari, katta bir o‘lchamdagi asarni boshlab qo‘yib, har kayfiyat bo‘lganda oz-ozdan ishlashni yaxshi ko‘raman. Shu bir yarim yil orasida 2.20x5 metrlik katta ish qilganman. Bu o‘zimizning hayot haqida.

Asarlarning bitishi, qanday chiqishi kayfiyatga ham bog‘liq-da. Ba’zan ish yuzasidan turli gaplar bo‘lsa, oylab qiynalib yuraman. Nima sababdan mening nomimga shunaqa gapirildi? Vaholanki, bunaqa emas-ku. Nega shunchalar dilozorlik? Bundan maqsad nima? Savollarga javob qidirib yashayman. Sabr qilib, arqonni uzun tashlab qo‘yishni bilaman.

– Bir sohaning rahbarisiz. Shu narsa ham balki ziddiyatlar va ichki muvozanat buzilishiga sabab bo‘lar.

– Men laganbardorlikni yoqtirmayman, lekin bor gapni aytish kerak. O‘zbekiston Badiiy akademiyasining shart-sharoitlari mintaqada ham, TDT, MDHga a’zo davlatlar ichida ham eng yaxshilaridan biri ekanidan g‘ururlanaman. Xizmat safarlarida qator mamlakatlardagi holatga guvoh bo‘lganman. Bizda san’at va san’at vakillari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Xorijiy konferentsiyalardan birida rassomlar uyushmasi raislari to‘plangandik. O‘shanda bizdagi holatni tushuntirib bersam, ishonishmayapti. “Marhamat, Toshkentga keling, o‘zingiz ko‘rasiz”, dedim.

Bilasizmi, G‘arbda san’at ahliga zodagon oilalar homiylik qilgan, masalan, Medichilar. Sharqda esa bu g‘amxo‘rlik hukmdorlarda aksini topgan, Buyuk Temuriylar saltanati buning misoli. Yangi O‘zbekistonda san’at vakillariga aynan davlat tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda.

Biz so‘nggi yillarda chinakamiga akademiya degan salohiyatga ega bo‘ldik. O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil qilingan 1997-yilda binosi ko‘rsatilmagan edi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan muhtasham va xos bino Badiiy akademiyaga berildi. Uni rekonstruksiya qilish uchun mablag‘ ham ajratildi. Bu, birinchisi. Ikkinchidan, tasviriy va xalq amaliy san’atini rivojlantirish borasida Prezidentimizning qator qarorlari imzolandi. Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari chiqdi.

Bizga ishonch bildirildimi, bu yog‘iga o‘zimiz tortib ketishimiz kerak. Asosiy vazifalarimizdan biri: xalqimizning etik va estetik didini shakllantirish. Dostoyevskiyning qahramoni ta’biri bilan aytganda, dunyoni go‘zallik qutqaradi.

– Badiiy akademiyani qiynayotgan, u hal qilishi kerak bo‘lgan qanday masalalar bor?

– Bizda o‘zgartirish kerak bo‘lgan, yechimini kutayotgan muammolar ta’lim bilan bog‘liq. Yurtimizdagi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun chiqarilgan qarorlar ijodiy oliygohlarga to‘g‘ri kelavermaydi. Bizda stajyorlik kursi bor. Unga tanlov asosida o‘n nafar talabgorni ikki yilda bir marta qabul qilamiz. Lekin ular, albatta, magistraturani bitirgan bo‘lishi kerak. Shu yerda, bakalavrni bitirgan oliy emasmi, degan savol paydo bo‘ladi. Shu bois, oliy ta’lim tasviriy san’atda olti yil, amaliy san’atda besh yil bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

– Bugun milliy san’atimizda jadidlar mavzusiga e’tibor qanday?

– Bu mavzuni muhtaram Prezidentimizning siyosiy irodasi va jadidlar merosiga bo‘lgan yuksak ehtiromini e’tirof etmay boshlay olmaymiz. So‘nggi yillarda Turkistondagi ma’rifatparvarlik harakati ilmiy jihatdan chuqur o‘rganila boshlandi. Shu bilan birga, adabiyot, kino, musiqa, tasviriy san’at, haykaltaroshlikda ayni mavzuda qator asarlar dunyo yuzini ko‘rdi, ular o‘z muxlislarini topib ham ulgurdi. Bu faqat davlat buyurtmasi bilan bo‘ladigan ish emas. Mazkur harakat mohiyati keng va xolis ochib berilgach, ijodkorlarning o‘zi ilhom bilan ishga kirishib ketdi.

Jadid namoyandalari, xususan, Abdulla Qodiriyga bir necha haykallar yaratildi. Misol uchun, Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi hovlisidagi adib haykali yosh haykaltarosh Bahrom Norboyevning ijod mahsuli. Juda chiroyli asar.

– Adabiyot va san’atning o‘q ildizi muhabbat zaminida nish urgan, deyishadi. Bugungi globallashuv davrida odamzodning eng buyuk tuyg‘usi sanalgan ishq arzon-garov havas, mazax va balandparvozlik nishoniga aylanib qolmayaptimi? Rassom sifatida bunga qanday qaraysiz?

– Og‘riqli savol. Ijodimda sevgi asosiy mavzu hisoblanadi. Shuning uchun qariyb ellik yildan buyon bu tuyg‘uning avlodlar qalbidagi evrilishini kuzataman.

Bir paytlar qizlarga “Siz menga yoqasiz” yoki “Men sizni sevaman!” deyish, bilasizmi, qanchalik mushkul edi? Buning uchun oshiqlar oylab taraddudda yurardi. Izhori dilga vosita izlab nimalar o‘ylab topilmagan, deysiz. Jarayonning o‘zi qanchalik go‘zal edi. Bu sharq-u g‘arbni tanlab o‘tirmasdi. Bashariyat ana shu pok tuyg‘udan bahramand bo‘lib, Yer yuzini yangi avlodlar uchun obod etardi. Uzoqqa bormaylik, o‘zimiz nima qilar edik? Xat yozardik. Satrlarni o‘n martalab o‘chirardik, bitta so‘z mundayroq bo‘lib qolsa ham yirtib tashlardik. Yana hammasi boshidan boshlanardi. Tayyor maktubni og‘aynimiz bilan velosipedda o‘sha qizning devoridan otib qochardik. Birov ko‘rib qolishidan uyalardik. Agar qiz rozilik bildirsa, ro‘molcha yoki biror narsasini sovg‘a qilardi. Or-nomus kuchli edi. Bu go‘zal emasmi? Bu his-tuyg‘ular bokira edi, sof edi. Biz knyaz Mishkinning gapini esladik. Ibrohim G‘afurov butun boshli kitobini “Hayo – xaloskor” deb nomlagan. Mana bu – o‘zbek xarakteri.

Buni kinolarda ham, tasviriy san’atda ham, badiiy adabiyotda ham ishlatsa bo‘ladi. Mening ilhomim shu sarchashmalardan suv ichgan. Chunki ishimni ko‘radiganlar agar qalbida o‘sha his-tuyg‘ularni allaqachon ko‘mib tashlagan bo‘lsa, qaytalab uyg‘otsin. “Sevaman” degan so‘zni ayta olsin. Yuragi ishqqa mubtalo bo‘lsin. Bilasizmi, sevgan va sevilgan odamdan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Ularning xayolida chiroyli orzular yashaydi.

Eng go‘zal davr ham yigit bilan qizning bir-biriga bo‘lgan izhor davri. Men ko‘proq o‘sha lahzalarni ishlashni yaxshi ko‘raman.

– Ko‘ngil olamiga sayr uchun rahmat. Mana shu kayfiyat endi bayramlarga ulanib ketadi. Yaqinda Mustaqillik kunini nishonlaymiz. Yurtdoshlarimizga dil izhorlaringiz bo‘lsa, marhamat.

– Biz jadidlar kutgan, shuning uchun kurashgan davrda yashayapmiz. Istiqlol davrida, xususan, oxirgi o‘n yillikda ko‘p narsaga erishdik. Fikrlashimiz o‘zgardi, dunyoni taniy boshladik, qolaversa, dunyo bizni taniy boshladi. Mustaqilligimizga ko‘z tegmasin. Farzandlarimiz, shogirdlarimiz mustaqil O‘zbekistonning bayrog‘ini dunyo sahnalarida baland ko‘tarishsin. Mana shu yurtda yashaganimizga shukronalar bildiraylik. Qolaversa, davlatning kelajagi uchun befarq bo‘lmaylik.

– Mustaqillik davri milliy tasviriy san’atini Sizning asarlaringizsiz tasavvur qilolmaymiz. Kelgusida ham Yangi O‘zbekistonni, Uyg‘onishni abadiyatga muhrlovchi asarlar yaratishingizga tilakdoshmiz. Samimiy suhbat uchun tashakkur!

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.



JAHON AYVONIDA

DAVLAT QARZI OSHDI



AQSH davlat qarzi tarixda ilk bor 40 trillion dollardan oshib, rekord o‘rnatdi. Bu haqda mamlakat Moliya vazirligiga tayanib, “BBC” xabar berdi.

Davlat qarzining umumiy qiymati 40 trillion 47 milliard dollarni tashkil etgan. Shundan xususiy investorlar, aholi va tashkilotlar oldidagi qarz 32 trillion 265 milliard dollardan ortiqni, hukumatlararo (davlat jamg‘armalari va tuzilmalari o‘rtasidagi) ichki qarz majburiyatlari esa 7 trillion 781 milliard dollardan ortiqni tashkil etmoqda.


“QAQSHATQICH IQTISODIY OPERATSIYA”

AQSH prezidenti Donald Tramp “Eronga har qanday tarzda yordam ko‘rsatgan” davlatlarga “iqtisodiy oqibat” bilan tahdid qildi.



Shu bilan birga, u Eronga qarshi “eng qaqshatqich iqtisodiy operatsiya” boshlanganini e’lon qilgan. Tramp bu haqda o‘zining “Truth Social” ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasida yozgan.

OLTIN HAYKALLAR



Shri-Lanka arxeologlari YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan obyektda 17 ta oltin bilan qoplangan Budda haykalini qazib oldi.

Mazkur joy bundan 2 ming yil oldin ibodatxona bo‘lgani taxmin qilinadi. Bu haqda “The Straits Times” xabar berdi.

Kamyob topilma qadimiy poytaxt – Anuradhapurada joylashgan Abhayagiri ibodatxonasi majmuasida o‘tkazilgan qazishmalar paytida topilgan.

OSH TOTIG‘I TUZ BILAN

Hindistonning Bixar shtatidagi Parsa o‘rta maktabida o‘quvchilarga tuz o‘rniga kir yuvish vositasi solingan taom berilgani aytilib, 34 nafar bola shifoxonaga yotqizildi. Bu haqda “The Independent” xabar berdi.

Xabarlarga ko‘ra, o‘quvchilarga tushlikda guruch hamda kartoshka va soya mahsulotidan tayyorlangan taom berilgan. Ayrim bolalar ovqatda tuz



yetishmayotganidan shikoyat qilgan. Shundan so‘ng ularga tuz o‘rniga adashib kir yuvish kukuni berilgani aytilmoqda.

OLTIN OSTIDA O‘LIM

Kamerundagi oltin konida yuz bergan o‘pirilish oqibatida 107 kishi halok bo‘ldi. Hodisa joyida qidiruv-qutqaruv operatsiyasi davom etmoqda. Bu haqda mahalliy aholiga tayanib, “Cameroun24” xabar berdi.



Qayd etilishicha, o‘pirilish Kamerun sharqidagi Zambua aholi punktida joylashgan oltin qazib olish havzasida sodir bo‘lgan. Qutqaruvchilar vayronalar va tuproq ostidan 100 dan ortiq jasadni olib chiqqan.

QABOHAT

VAHSHAT

To‘qson yil avval sovetlar o‘z fuqarolariga nisbatan o‘tkazgan va tarixga “katta terror” nomi bilan kirgan qatag‘onning surati va siyratidan qay darajada xabardormiz? Eshitganlarimiz, o‘qiganlarimiz aksari zudlik bilan yasalgan “jinoiy ish”lar, qisqa, bir yoqlama tergov bayonnomalari va “uchlik” besh-o‘n daqiqada chiqargan hukmlar, va nihoyasida dahshatli qotillikka ilova shaklida “sho‘rpaxta” o‘rnida bosilgan yarim varaqlik “oqlov”lardan iborat. Yana har bir hududdan necha nafar kishi otilgani, necha nafari “o‘n yil yozishmaslik sharti bilan” ittopmas joylardagi hibsxonalarga yuborilgani va baxtli tasodif tufayli ularning ayrimlari yurtiga qaytib kelgani (ozod qilingach ham, o‘lgunicha nazorat ostida bo‘lgani) haqidagi raqamlar.



Tergov bayonnomalari, hukmlar va oqlov qog‘ozlari davr siyosatiga mos va xos uslubda bir xil qolipda tuzilgani, yozilgani o‘quvchiga o‘sha davrda ro‘y bergan ulkan fojia ko‘lamini ko‘rsatib bera olmaydi. Otilganlar gapira olmagani kabi guvohlar ham sukutga ketgan. Shu jarayonda yaqinlari va hatto umrida biror marta ko‘rmagan odamlarga tuhmat qilganlar, ya’ni, sotilganlar, mozorga kirguncha tillarining yetti joyiga qulf urishga majbur bo‘lgani mavzu o‘zanini boshi berk ko‘chalarga olib ketadi – somon uyumi orasidan igna izlashdek gap. Ammo... Mashhur yozuvchi F.Kuperning “Qo‘rquv aqllilarni tentak, kuchlilarni ojiz qiladi”, degan fikrida jon bormi, degan gumonda sanoqli guvohlar ko‘rsatmalariga suyangan holda, vahshat siniqlarini ming mashaqqat bilan to‘plab, bugungi va kelgusi avlodga yetkazish majburiyatini yelkamizga olamiz.

Xorazm viloyat teatrining mohir sozandasi, maqom bilimdoni Matyoqub xarrot yozgi teatrda kechki tomosha payti tasodifan chiroq o‘chib qolganida, osmonni yoritib turgan to‘lin oyga qarab, beixtiyor: “Xudoyimning oyinnan qo‘ymag‘ay”, deb yuboradi va ertasi kuniyoq sakson yashar go‘yanda hibsga olinadi. Keksa sozanda qiynoqlarga dosh bera olmay, 1939-yili Urganch hibsxonasida jon taslim qiladi. Vahshiy tergovchilar “aybiga iqror bo‘lishi uchun” avval sozandaning tirnoqlarini sug‘urib olgan, so‘ng barmoqlarini sindirgan, “Endi bu yerdan tirik chiqolsang ham, hech qachon maqom chala olmaysan. Senga o‘sha Xudoying ham yordam bera olmaydi”, deb ustidan kulgan.

Qatag‘on avjiga chiqqan davrda Xorazmda “Aynak” laqabli rus zobiti NKVD boshlig‘i bo‘lgan. “Aynak” forsiy so‘z bo‘lib, bir ko‘zli durbin degani. Ma’lumki, o‘sha vaqtda har kuni tepadan necha kishi qamalishi va nechasi otilishi bo‘yicha reja-topshiriq berilgan. Bir kuni tepadagi boshliqlarga yaxshi ko‘ringisi kelgan, unvoni oshishini istagan o‘sha kimsa telefonda tepadagi xo‘jayinlariga: “Nega hibsga olinadigan odamlar sonini Samarqanddan kamroq berasiz? Bizlarning ulardan kam joyimiz bormi?” deb norozi bo‘ladi. Tepadagi rahbari shuni kutib o‘tirganday, “kunlik reja”ga yana bir yuz ellik kishini qo‘shib beradi. “Aynak” “qo‘shimcha rejani” zudlik bilan bajarish uchun Gurlan tumani NKVD boshlig‘iga “yetmish beshlik” reja yuklaydi. Vaqt ancha kech bo‘lgani sababli, Gurlan NKVD boshlig‘ining boshi qotadi – yuz ellik kishini qaydan topsin? Shunda xodimlaridan biri: “Bugun Bog‘olonda qishloq kengashi saylovi bor. Rejaga yetarli odam bir joyda tap-tayyor!” deydi. Bu gap joniga ora kirgan boshliq yoniga ikki qurolli xodimini olib Bog‘olonga kelganida, saylov yakunlanayotgan bo‘ladi. NKVD boshlig‘i yangi saylangan qishloq kengashi raisiga: “Zalda o‘tirgan ilg‘orlardan yetmish besh kishini ro‘yxat qil! Ularni tumanga olib ketamiz, boshliqlar mukofot bermoqchi”, deydi. Ro‘yxat tuzilib, o‘qib bo‘lingach, zalda norozilik boshlanadi: “Nega falonchi boradi, men undan kam ishlayapmanmi?”, “Falonchi aravakash uch kun kasallanib ishga chiqmadi, uning o‘rniga men ishladim. Mukofotni endi u oladimi?” Qishloq kengashi raisi: “Qolganlarga ham navbat keladi”, deb zo‘rg‘a tinchitadi. Ro‘yxatga kirganlar o‘n besh chaqirim uzoqlikdagi Begovot cho‘liga poyi-piyoda olib boriladi va chala-chulpa hukm o‘qib, otib tashlanadi.

Xonqaning Madir qishlog‘ida kechqurun yig‘ilish bo‘layotgan vaqtda zalga qurolli xodimlar bostirib kiradi, xonaning barcha deraza va oynalarini tashqaridan mixlashadi. Nima gapligini bilmagan odamlar yarim tungacha qo‘rquv bilan qorong‘i zalda taqdirlarini kutib o‘tiradi. Tungi soat uchlarda “Bugun reja bajarilibdi, uylaringga tarqalinglar!” degan buyruqdan so‘ng hamma oyog‘ini qo‘liga olib tashqariga chopadi. Ichkarida qo‘rquvdan yuragi yorilgan ikki odamning jasadi qoladi. Bu dahshatli voqeani keksa pedagog Nurulla aka oshkoralik zamonida so‘zlab bergandi. U o‘sha vaqtda o‘n bir yoshda bo‘lgan, qiziquvchanligidan otasiga ergashib mash’um majlisga borgan ekan.

Mana bu voqea bizning qishloqda bo‘lgan. Kechqurun kolxoz idorasida faollar yig‘ilishi bo‘layotgan vaqtda bir xodim “polutarka” mashinasida kelib, “O‘n besh faolni tumandagi yig‘ilishga olib borishim kerak!” deb mashinaga mindirgan. Shu yerdan tasodifan o‘tib borayotgan o‘n uch yashar o‘smir, umrida mashinaga minib ko‘rmagani havasidan, boshqalarga qo‘shilib kuzovga chiqib olgan. NKVD xodimi qorong‘ida uni ham “o‘n besh mahkum” qatorida sanagan. Yo‘lda ketayotganlarida xodimning ko‘zi odamlar orasida o‘tirgan bolaga tushadi va rahmi kelganidan uni yo‘lda tushirib qoldiradi. Mahkumlarni to‘g‘ri Begovot cho‘liga olib borganida boshliq sanab ko‘rsa, rejadan bir odam kam. “Rejani barbod qilgan” xodim boshqalarga qo‘shib otib tashlangan.

Urganch shahri chekkarog‘ida o‘sha yillari NKVD xodimlari uchun dam olish maskani qurishgan. Keyinchalik bu yer “Ijroqo‘m bog‘i” nomi bilan tanildi. O‘sha davrda dam olish maskanida qorovul bo‘lib ishlagan Samandar aka umri poyonida bir umr ko‘ksini ezib kelgan voqeani farzandlariga so‘zlab bergan: “Ikki kunda bir tunda qorovullik qilganman. Ko‘pincha NKVD xodimlari tunda suyuqoyoq ayollarni olib kelib, tonggacha maishat qilardi. Mayli, gunohlari o‘z bo‘yniga. Ammo, tirik ko‘milganlar ustida maishat qilishganini Xudo kechirarmikan?.. Bir kuni tun oqqanda ikki yuk mashinasida kelib qolishdi. Darvozani ochib, ularni ichkariga o‘tkazib yubordim. Bir yarim soatlardan so‘ng mashinalar qaytib ketishdi. E’tibor berganim, mashinalardan birisi yo‘lovchilarsiz qaytib chiqdi. Kirib ketganlar ichkarida nimalar qilyapti, ertaga biror kor-hol bo‘lsa qamalib ketmay, deb darvozani bekitgach, bog‘ to‘ri tomonga bordim. Hamma yoq tinch, odam qorasi ko‘rinmaydi. Hayron bo‘lib orqaga qaytayotganimda yer tagidanmi, bog‘ ichidanmi, qandaydir ovoz eshitilgandek bo‘ldi. Birortasi mast bo‘lib qolib ketibdimi, deb daraxtlar tomon borayotib, nogoh oyog‘im yangi qazilgan tuproqqa botib ketdi. Kunduzi ham bu yerda o‘t-o‘lan o‘sib yotardi. Kim, nima uchun qazdi ekan, deb aniqlash uchun yerga egilganimni bilaman... yer ostidan odam tovushi keldi. U bo‘g‘iq tovushda ingrardi. Orqamga qaramay qochdim. Tongda qo‘rqa-pisa borib qarasam, uch kigiz o‘rnidek joy kovlangan va qayta ko‘milgan. Tunda olib kelingan mahbuslarni tirik ko‘mib ketishibdi... Bu yerda qadam bosishga qo‘rqib qoldim, kasalligimni bahona qilib, qorovulchilikdan bo‘shadim. Bo‘shayotgan vaqtda mendan: “Hech qachon hech nima ko‘rmadim”, mazmunida tilxat olishdi”.

Begovot Urganch shahridan o‘n chaqirimlar masofadagi kimsasiz cho‘l bo‘lib, qatag‘on davrida aksar mahkumlar shu yerda tunda o‘qqa uchgan. Hukm ijrosi uchun mas’ul guruh omonat qurilgan chaylalarda yashagan. Cho‘lda quyon ko‘p bo‘lgani uchun ovga qiziqqan xodimlar beshotar o‘qlarini quyon otishga sarflagan va kechqurun otishga olib kelingan mahkumlarni qilich bilan qatl qilgan. Chunki o‘qlar har bir mahkumni otishga bir donadan sanab berilgan. Xodim hayajondan mo‘ljalda adashsa, hayfsan olgan, o‘q puli oyligidan chegirib qolingan. Arxivda o‘sha jarayonda ijrochi guruh tarkibida bo‘lgan NKVD xodimlari yozgan “Tushuntirish xat”lari saqlanadi. O‘qni quyon otishga sarflagan xodim o‘zini shunday oqlagan: “Ba’zida yigirma kishilik guruhimiz uchun oziq-ovqat kelishi kechikardi. Ikki-uch kunlab ovqatimiz uchun go‘sht berishmasdi. Shunda bizlar qumlikdan quyon otib yeyishga majbur bo‘lganmiz”. Bu qotillar guruhi a’zosining “tavbasi” – u odam otgani uchun emas, quyon otgani uchun kechirim so‘rayapti.

Ana shunday “Tushuntirish xat”-lari orasida bir dahshatli iqrorga ko‘zim tushdi. NKVD xodimi yozadi: “Bizlar kunduzi o‘qlarni quyon otishga sarflagach, olib kelingan mahkumlarni qator tizib qo‘yib, boshlarini qilich bilan uzardik. Bir-birimiz bilan “kim bir zarbada mahbusning boshini uzish va u qancha masofaga uchib ketishi” bo‘yicha musobaqa o‘ynardik. Hayron qolardik, qilichni bir serpa-ganda uzilgan bosh toki yerga tushganicha nimadir deb gapirib boradi...”

To‘xtadik. Bu yog‘ini yozishga asabimiz chidamaydi...

Gollivudda ma’lum bir tomoshabin qatlami uchun “vahshat” kinolari ishlashadi. Bu kinolarni yolg‘iz ko‘rishga qo‘rqadi odam. Mabodo, majburan tomosha qilsangiz ham, voqealar rivoji qay yo‘singa burilishini kuzatib, tanangiz muzlab o‘tirasiz. Qatag‘on zamoni vahshati mazmunan shunga o‘xshab ketadi. “Qama-qama”, “ot-ot”lar avjiga chiqqan zamonda bechoralar tunlari chala o‘lik holida uxlashgan. Tomda ikki mushuk quvlashgani sasi yuraklarini yorib yuborgan. Yarim tunda nogoh eshik taqillashidan ko‘plarning joni o‘rnidan turmasidan chiqib ketgan...

Bu vahshat sahnasini nega esga oldik? Kinochilarimiz nega qatag‘on davri dahshatlari to‘la aks etgan birorta “vahshatfilm” ishlashmadi? Shunday kinolar kerakmi, dersiz? Qonli o‘tmishni unutmaslik, bu vahshatlar takrorlanmasligi uchun kerakdir balki? Shundagina hali-hamon “gugurt bir tiyin edi, Stalin eng adolatli hukmdor bo‘lgan”, qabilida davralarda gap sotib o‘tiradigan manqurtlarning tili boylanar? Bugunimiz va ertangi kunimiz o‘z-o‘zidan kelmagani, kelmasligi, bugungi tinch va farovon hayotimiz poydevori ming-minglab shahidlarning pajmurda tanlari uzra barpo etilgani, vahshat siniqlari ustida yashayotganimizni eslarmiz hech bo‘lmasa!

Ro‘zimboy HASAN

TABDIL

Fitrat va tanqid

XX asrning 20-yillarida yozilgan adabiy tanqidiy maqolalarning ko‘pchiligi sahna asarlari va ularni sahnaga qo‘yish jarayonlari bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra, zamonaviy o‘zbek adabiy tanqidchiligi yangi asarlarga taqriz maqolalar barobarida dramalarni targ‘ib etish va ularning sahna talqinlariga munosabat bildirish yo‘sinida shakllandi, adabiy tanqid bilan teatr san’ati tanqidchiligi baravar qadam tashladi, deyish mumkin. Bu davr matbuotida Fitrat ijodiga jiddiy e’tibor berildi. Men Fitrat tirikligida yozilgan shu manbalarni jamlab, “Fitrat va tanqid” nomli tabdil risola hozirladim. Quyida shu kitobchadan olingan “Ishchi”ning kichik maqolasini hurmatli “Jadid” o‘quvchilariga taqdim etaman.

Bahodir KARIM

HIND IXTILOLCHILARI

Markaziy ishchilar klubi qoshidagi teatru to‘garagi tomonidan hayitning birinchi kuni (1924-yil 6-mayda) shoir Fitratning 5 pardalik “Hind ixtilolchilari” asari o‘ynaldi.

Asar ismidan ma’lumdirki, bundagi ko‘rinishlar Hindiston o‘zgarishchilarining Angliya zulmiga qarshi va Hindistonni mustamlaka holidan chiqarib mustaqil Hindiston yasash yo‘lida jonbozlik ko‘rsatishlarini tasvir etadir. Lekin bizning teatrchilikdagi ixtisosligimiz orqasida bukun o‘ynalg‘on hind ixtilolchilari unga to‘liq chiqmasa-da “Kolizey” sahnasining boylig‘i va necha yildan berili sahna atrofidan qochqon bir necha muqtadir artistlarimizning qaytadan sahnamizga ishtirok eta boshlog‘onlari bugungi o‘yunning ko‘b kamchiliklarini yopib ketdi.

Asari ustida matbuotda tanqid ham taqriz bosilib o‘tkani uchun bu yerda sahna tuzilishi kastyum, girim va artistlarning



sahna harakatlari ustida yozish bilan kifoyalanamiz:

Rahimbaxsh – hindli, o‘qumishli bir yigit ro‘lida o‘rtoq Bosit Qoriyev, Dilnavoz ro‘lida Ma’suma xonimlar o‘z ustlaridagi mas’uliyatlik ro‘llarini ado qila oldilar.

Rahimbaxsh Dilnavozga to‘lqinli muhabbatni jonlantirib ko‘rsata olmasa-da, uning ovozi va harakatida ustaligi orqasida zararsizgina bo‘lub chiqdi. Ma’suma xonim vatanchi bir hind qizi bo‘lub o‘ynay oldi desak mumkin. Biroq Ma’suma xonimdagi ro‘lni yodlamasliq illati har vaqt ko‘b qusur bo‘lub tushadir. Ayniqsa, “Kolizey” kabi muhabbatli bir sahna ro‘lini yod bo‘lishi ustiga tovushni ham balandroq chiqarishini talab etadir. Agar Ma’suma xonim bu ikki juz’i kamchilikni kesa olsa, sahna harakatida unga irod etkizishga yo‘l qolmaydir.

Lolahardayol – majusiy hindi (darveshi) ro‘lida Sayfi Qori; bu ro‘l kichkina ko‘rinsa-da g‘oyat muhimdir. Bu ro‘lning Sayfi Qorig‘a berilishi juda munosib bo‘lib tushkan. Sayfi Qori ovozi va harakat jihatidan o‘zbek sahnasining bir san’atkoridir. Biroq bu o‘rtoqqa qiladurg‘on bir xolisona bir tavsiyamiz bor. O‘rtog‘imizda boshqa artistlar bilan muvofaqat qilish yo‘q. Bir oz “man-man”lik bor. Uning gazetga yozilishga aloqasi bo‘lmasa ham bu holning ko‘b vaqt teatru ishlariga zarba berib kelganini bilganimiz uchun mumkin qadar bu kasaldan shifo topish yo‘llarini izlashini samimiy suratda tavsiya etamiz.

O‘kunar – Lohur shaharining po‘lis boshlig‘i (ingliz) ro‘li iqtidoriga qarab Fathullaga berilgan. Fathulla bu ro‘lni zarar keltirmasdan o‘ynab chiqardi. Bu san’atkor ko‘bdan beri sahnadan cheklangan edi. Bugun qaytadan san’at eshigiga qaytib kelishi xalqni ortiq sevintirdi.

Mavlono No‘mon – hind Avg‘oniston chegarasidagi Bunir qo‘rg‘onining boshlig‘i bo‘lgan bir mulla ro‘lida Muzaffar. Bu ruhoniylarg‘a maxsus bo‘lgan munofiqlikni jonlantirib ko‘rsata olsa-da, ovozini sekin chiqarib Fitratning hikmatlik jumlalarini xalqqa talqin eta olmaydi.

Marling – ingliz josusi ro‘lida o‘rtoq Abror. Abror josuslik, aldamchilik va shayton ro‘llarida o‘zining sahnasiga nisbatan bir necha bor yaxshi o‘ynadi.

Boshqa artistlar ham zararsiz o‘ynadilar.

Sahna tuzilishi, girim jihatidan juda zo‘r kamchiliklar, yanglishliklar bo‘ldi. Bu kasal albatta bizning Hindiston va hindliklarni yaxshi tanimog‘onimizdan kelib chiqqandir. Shoyad yana bir o‘ynalg‘onda bu kamchilik har tomondan tekshirilib to‘lg‘izilar.

Sahnamizda qayta boshidan ko‘rina boshlag‘on Fathulla, Muzaffar, O‘tablarning qo‘llarini samimiy bir suratda siqib qaytadan o‘zbek sahnasiga qadam bosishlari bilan qutlaymiz.

ISHCHI
“Turkiston”, № 266.
1924-yil 12-may

YANGI KITOBLAR


UYUSHMA TUHFALARI

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida yana bir turkum kitoblar o‘quvchilarga tuhfa etildi.



“Qatra edim – daryo bo‘ldim” nomli kitob jamiyatimizda o‘zining ijtimoiy faolligi bilan ham keng tanilgan ijodkor, “Do‘stlik” va “El-yurt hurmati” ordenlari sovrindori Omonulloh Mutal qalamiga mansub. To‘plamdan muallifning sara she’r va faxriyalari bilan bir qatorda, “Biz suv ichgan buloqlar”, “Birni ko‘rib fikr qil”, “Dunyo – darsxona”, “Qatra edim – daryo bo‘ldim”, “Armon”, “Ezgulik eskirmas” nomli hayotiy lavha va xotiralari ham o‘rin olgan.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, taniqli iqtisodchi va jamoat arbobi, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi, O‘zbekiston qirg‘iz milliy madaniy markazi raisi Rahmatilla Jabbarovning hujjatli qissasi “Hayot yo‘lim” deb nomlanadi. Kitobda tug‘ilgan go‘shaga mehr, elparvarlik tuyg‘ulari yorqin aks etadi, bosib o‘tilgan hayot yo‘li va undan chiqarilgan teran xulosalar qiziqarli tilda bayon etiladi. Mamlakatimizda yuritilayotgan bag‘rikenglik siyosati, jamiyatimizda turli millat vakillari uchun yaratib berilayotgan sharoit va imkoniyatlar samimiy e’tirof etiladi.





“Uyg‘on, o‘g‘lim” nomli salmoqli to‘plam faqat she’rlardan iborat. Botirjon Ergashev she’rlarining mavzu doirasi rang-barang. She’rlarning “Avval Vatan”, “Sizga farzandligim baxtdir ming chandon”, “O‘zing o‘zgarmasang, olam o‘zgarmas”, “Sochlaringning bir tolasi...”, “Mendan keyin...”, “Olamning tinchini buzmang, odamlar!”, “Senga muhtojman”, “Muharrir hayot” deya turkumlanishi ham shundan dalolat beradi. Kitobga filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos Suvon Meli so‘zboshi yozgan.

“Adabiyot” va “Sahhof” nashriyotlari tomonidan chiroyli dizaynda taqdim etilgan yangi kitoblar o‘quvchilarni befarq qoldirmaydi, deb o‘ylaymiz.

Nigina ISKANDAROVA

TAKLIF

9 EMAS, 7 OY BO‘LSA...

Ma’lumki, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida bir o‘quv yili 9 oy davom etadi. Sovet davridagi tartib shu kungacha kelmoqda. Jahon ta’lim tizimida bu masala bozor iqtisodidan kelib chiqqan holda ancha ixchamlashtirilgan. Masalan, Yevropada yangi o‘quv yili 1-oktyabrdan boshlanib, 30-aprelda tugaydi. Bunda talabalarning mustaqil o‘qishi, ishlab chiqarishda qatnashishi, o‘qish uchun shartnoma mablag‘larini topishga imkoniyat yaratish va boshqa ijtimoiy omillar asos qilib olingan. O‘zbekistonda ham oliy ta’lim muassasalari faoliyatida to‘lov-shartnoma tizimi qonuniy tus olgan bo‘lishiga qaramay, 9 oylik tartib o‘zarishsiz qolmoqda.

Keyingi yillardagi ijtimoiy so‘rovlar va hayotiy tajribalar bu masalada jiddiy o‘zgarish qilish lozimligini taqozo qilyapti. Bu shakliy yangilanish ta’lim sifatini ko‘taradi, yoshlarning muammolarsiz ta’lim olishi va ish topishiga, hamkorlik asosida yoki ixtiyoriy ravishda xorijda ta’lim olishiga sharoit yaratadi.

Turkiston madrasalari ta’lim tizimida ham bu amaliyotga yaqin holat bo‘lganini bilamiz. 1894-yili “Turkiston viloyati gazeti”da bosilgan “Turkiston viloyatidagi sartiya madrasalarida katta mudarrislarga berilgan dasturilamal xususida” nomli maqolada madrasalarda noyabr, dekabr, yanvar, fevral oylarida o‘qishlar tashkil etilgani aytilgan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, o‘sha zamonlarda madrasalarda qish faslida o‘qilgan. Talabalar boshqa vaqtda, masalan, bahor boshlanishi bilan dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan mashg‘ul bo‘lgan yoki sayohat qilib, tog‘-u bog‘larda dam olgan. “Bir yigitga qirq hunar ham oz” degan maqolga amal qilib, ustalarga shogird tushib, turli kasblarni egallab, tirikchilik qilganlar ham ko‘p bo‘lgan. Biz bu bilan o‘quv yili 4 oy bo‘lsin, demoqchi emasmiz. Aksincha, o‘tmishda hayotiy, amaliy-zaruriy ishlar har doim nazariy ta’limdan ustun qo‘yib kelinganini ta’kidlamoqchimiz.

Bizda ham xorijdagidek intensiv ta’lim amaliyotiga o‘tilib, 7 oylik o‘quv yili joriy qilinsa, o‘qishlar 1-oktyabrdan boshlanib, 30-aprelda tugasa, may-iyun oylari qabul vaqti hisoblansa, degan taklifimiz bor. Talabalikka qabul qilinganlar iyul-avgust-sentyabr oylari davomida istagan sohasida kelishuv asosida vaqtincha ishlab pul topadi, yangi o‘quv yiliga moliyaviy tayyorgarlik ko‘radi. 7 oyga yetadigan mablag‘ni to‘plab, jillaqursa ovqat puli va ijara pulini yig‘ib, o‘qishni boshlaydi (Epli talaba shartnoma pulining bir qismini topib qo‘yishi ham mumkin).

O‘qituvchilar ikki oy mehnat ta’tilidan tashqari uch oyda nima bilan shug‘ullanadi, degan savol tug‘ilsa, aytamizki, ular bu vaqtda malaka oshirish va ilmiy ish bilan shug‘ullanadi. Ularning ish vaqti 9 oyligicha qoladi. O‘quv oylarida (7 oy ichida) hech bir o‘qituvchi malaka oshirishga jalb etilmaydi. Xuddi shuningdek, 7 oy o‘qish davomida talabalarning amaliyotga chiqishi ham qisqartiriladi.

Bunday islohotning amalga oshirilishi ilmiy-texnik taraqqiyotga erishayotgan, onlayn, offlayn va masofaviy ta’lim joriy etilgan bugungi O‘zbekiston sharoitida jamiyatimizga ulkan iqtisodiy va ma’naviy-ruhiy foyda keltiradi, deb o‘ylaymiz.

Ikromiddin OSTONAQULOV,
tarix fanlari doktori

ALQISSA

ZAMONLARARO SAYOHAT

Zamonlararo sayohat faqat fantastik roman yo kinolarda bo‘lmaydi. Buni amalga oshirish uchun Amerika yoki Yaponiyaning ilm markazlariga borish ham shart emas. Nima qilmoq kerak? Eng qulay yo‘li – poytaxtimizdagi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyiga borish. Men ham ikki yillik mukammal ta’mirdan keyin yana xalqimiz va yurtimiz mehmonlariga muhtasham eshiklarini ochgan dargohga bordim.



Ochilish marosimining sanasi tasodifiy tanlanmagan. Joriy yil 24-iyulda muzeyga Turkiston xalq muzeyi nomi bilan asos solinganiga 150 yil to‘ldi. 55 yillik binoning muhandislik tizimlari, kommunikatsiya, elektr tarmoqlari, hatto transformatorlargacha butunlay eskirib qolgan edi, shu bois, dastlab bir yilga mo‘ljallangan ta’mir ishlari ikki yilga uzaytirilgan. Bu haqda muzey direktori, tarix fanlari doktori, professor Jannat Ismoilova ochilish marosimida yig‘ilganlarga ma’lum qilgan.

Moziygohga qadam qo‘yishim bilan qarshimdan chiqqan polotno meni shoshirib qo‘ydi. Beixtiyor, ardoqli shoirimiz Hamid Olimjonning quyidagi satrlari yodimga keldi:

Chiroylidir go‘yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog‘lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam.

Ikki yonimda esa turli davrlarga mansub ustunlar tiklab qo‘yilgan, ular yonidan o‘tayotib, “Buyuk bobolar kabi tetik va shahdam, viqor bilan yuribmanmi?” deb o‘ylab qoldim. Muzey zallarida yurar ekanman, ekspozitsiyalar meni dinozavrlar davridan boshlab, bugungi kunimizgacha bo‘lgan uzoq yo‘ldan olib o‘tdi. Yurtimiz hududi sivilizatsiyaning eng qadimgi o‘choqlaridan biri bo‘lgan, Yer tarixi davomida shunchalik ko‘p saltanatni, shunchalik ko‘p o‘zgarishni boshidan kechirgan ekanki, buni bir necha soatlik sayohat davomida his qilish odamni shoshirib qo‘yar ekan. Har bir zalda o‘zimni xuddi zamonlar aro sayohatchidek his qildim, go‘yo har bir davr xonasi bir bekat, men esa bu bekatlarni birma-bir bosib o‘tayotgan yo‘lovchidek edim. U yerda maktab darsliklarida ko‘rganim – xarita, qurol-aslaha, turli xil kulolchilik namunalarini tomosha qilib, zavq oldim. Bu hissiyotni na fantastik asarlar, na AyTi vizualizatsiyasi bera oladi.

Ma’lum qilinishicha, muzey jamg‘armasida 350 mingdan ortiq eksponat saqlanadi. Ular orasida 70 mingdan ziyod arxeologik topilmalar, 100 mingdan ortiq numizmatika namunalari, qadimiy qo‘lyozmalar va etnografik materiallar bor. Yangi ekspozitsiyada o‘zbek davlatchiligining shakllanish tarixi, xalqning boy an’analari va madaniyati yanada jonli, ta’sirchan gavdalantirilgan.


Sayohatim davomida meni eng ko‘p hayratlantirgan, to‘xtalishlarga sabab bo‘lgan zallardan biri Sohibqiron Amir Temurga bag‘ishlangan hudud bo‘ldi. Keyin meni Mirzo Ulug‘bek ishlariga bag‘ishlangan bo‘lim kutib oldi. Bu yerda uning yulduzli osmon tadqiqotlari, Samarqanddagi rasadxonasi va aniq astronomik hisob-kitoblari haqida hikoya qiluvchi eksponatlar qatorida tashrif buyuruvchilar bevosita qo‘llari bilan sinab ko‘rishlari mumkin bo‘lgan qiziqarli interaktiv qurilma ham bor edi. Bu doiraviy, kalendar hisoblagichga o‘xshash asbob bo‘lib, unda yillar 2020 dan 2070 gacha, oylar va kunlar aylana shaklida joylashtirilgan, tashrifchi teshiklarga ishora qilib, istalgan sananing hafta kunini aniqlashi mumkin edi. Bu qurilmani tomosha qila turib, besh asr avval, teleskop va kompyuter bo‘lmagan bir davrda, faqat aql va sabr-toqat bilan osmon jismlarining harakatini bunchalik aniqlikda hisoblab chiqqan bobomizning dahosiga yana bir bor tan berdim.

Afsuski, vaqtim chegaralangani bois, muzeyda uzoq qololmadim. Qachon biz ham chet elliklarga o‘xshab soatlab muzeyni tomosha qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lar ekanmiz-a? Tashqariga chiqsam, xorijlik sayyohlar o‘zbekligimni ko‘rib, suratga tushishga taklif qilishdi. Ajabmas, xalqaro saytlarda suratlarim chiqib qolsa.

Muzeyni tark etar ekanman, o‘tmishni bilish shunchaki qiziqish emas, balki kelajakni qurishning zaruriy shartidir, degan haqiqatni tushunib yetdim. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi nafaqat o‘tmishni saqlovchi xazina, balki har bir tashrif buyuruvchini o‘z davri, o‘z mas’uliyati haqida o‘ylashga undovchi ko‘zgu ham ekan. Tarix bu faqat kitoblarda o‘qiladigan sana va voqealar ro‘yxati emas, balki har birimiz har kuni yozib borayotgan, hali yakunlanmagan bir hikoya deb o‘yladim. Men ham kelajak avlodga munosib o‘rnak qoldirish orzu-o‘ylari bilan dorilfununim tomon odimladim.

Husniddin MUHAMMADMUROD,
O‘zJOKU 3-bosqich talabasi

TARBIYA



INJIQLIKMI, EHTIYOJ?

Bugun aksariyat ota-onalar farzandlarining injiq, o‘jar, itoatsiz, tajovuzkor va hissiy noroziligidan shikoyat qiladi. Ammo bola bularni ataylab qilmaydi. Go‘dakdagi har bir hissiy va xulqiy o‘zgarishlarning sababi bor. Muammoning asl ildizini tushunish ota-onaning farzandi bilan yanada mehr, hurmat va xotirjamlik bilan munosabatda bo‘lishiga yordam beradi.

Besh-yetti yosh davrda kuzatiladigan injiqliklarning muhim sabablaridan biri – ota-onaning bola yoshiga mos kelmaydigan talablar qo‘yishidir. Ba’zan ota-onalar bolaning jismoniy, aqliy va hissiy rivojlanish darajasini hisobga olmagan holda, undan kattalardek mas’uliyatli, sabrli va har doim to‘g‘ri qaror qabul qilishni kutadi. Bunday yuqori talablar esa bolada hissiy zo‘riqish va injiqliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bu davrda bola hayotidagi yana bir katta o‘zgarish – maktabga qadam qo‘yishdir. Yangi muhit, yangi qoidalar, o‘qituvchi bilan munosabat, dars tayyorlash, tartib-intizomga rioya qilish va tengdoshlari orasida o‘z o‘rnini topishga intilish bolaning ruhiy yukini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli, maktabning ilk yillarida bolaning ba’zan tez jahli chiqishi, yig‘loqi bo‘lib qolishi yoki injiqligi kuchayishi tabiiy hol hisoblanadi.

Besh-yetti yoshga kelib bola o‘zini boshqalar bilan ko‘proq taqqoslay boshlaydi. U sinfdoshlarining bilimiga, kiyimi, o‘yinchoqlari yoki o‘qituvchining ularga bo‘lgan munosabatiga e’tibor beradi. Endi u nafaqat ota-onasi, balki tengdoshlarining ham fikrini qadrlay boshlaydi. Shu bois, maktabdagi muvaffaqiyatsizlik yoki do‘stlari bilan kelisha olmaslik ham bolaning hissiy holatiga ta’sir qilishi mumkin. Oilada bir nechta farzand bo‘lsa, ota-onaning ularga nisbatan adolatsiz munosabati ham injiqliklarga sabab bo‘ladi. Masalan, “Sen kattasan, ukangga yon ber”, “Sen qiz bolasan, ukangga yordam ber” kabi iboralar tez-tez takrorlansa, katta farzand o‘zini tushunilmayotgandek his qiladi.

Albatta, oilada vazifalar bo‘lishi tabiiy, biroq ular bolaning yoshi va imkoniyatlariga mos bo‘lishi, barcha farzandlarga nisbatan adolat saqlanishi muhim. Bu davrda yana bir o‘zgarish yuz beradi. Bola asta-sekin ota-onasining ham xato qilishi mumkinligini anglay boshlaydi. Avvallari ularni eng kuchli va hamma narsani biladigan inson deb tasavvur qilgan bo‘lsa, endi ularning ham kamchiliklari borligini sezadi. Ota-onaning xatti-harakati va aytgan so‘zlari bu davrda bolaning tarbiyasiga yanada kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bu paytda ota-onaning asosiy vazifasi bolaning his-tuyg‘ularini tinglash, uning yoshiga mos talablar qo‘yish, muvaffaqiyatini boshqalar bilan emas, o‘zining kechagi natijalari bilan solishtirish va oilada adolatli munosabatni saqlashdir. Ayni yondashuv bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va injiqligi kamayishiga yordam beradi.

O‘smirlik davri bola hayotidagi eng murakkab va muhim rivojlanish bosqichlaridan biridir. Ko‘pchilik ota-onalar aynan shu davrda: “Farzandim butunlay o‘zgarib qoldi”, “Gapimni eshitmay qo‘ydi”, “Juda qaysar bo‘lib qoldi”, deya xavotirga tushadi. Ko‘pincha bu xatti-harakatlar tarbiyaning buzilganidan emas, balki o‘smirning tabiiy rivojlanish jarayonidan dalolat beradi. Bu davrda farzandlarimizning oldida eng muhim vazifa turadi – “Men kimman?” degan savolga javob topish. Endi u o‘zini ota-onasining bir qismi emas, balki alohida shaxs sifatida anglay boshlaydi. O‘z fikri, qarashi va tanloviga ega bo‘lishni istaydi. Avvalgiga qaraganda ko‘proq bahslashishi, qarshilik ko‘rsatishi yoki mustaqil qaror qabul qilishga intilishi tabiiy hol hisoblanadi.

O‘smirning miyasi ham jadal rivojlanishda davom etadi. His-tuyg‘ularni boshqaruvchi miya qismlari bu davrda juda faol ishlaydi. Biroq rejalashtirish, oqibatni oldindan baholash, sabr qilish va impulslarni nazorat qilish uchun mas’ul bo‘lgan old miya po‘stlog‘i hali to‘liq yetilmagan bo‘ladi. Shu sababli, o‘smir ba’zan hissiyotga berilib qaror qabul qilishi, keyin esa qilgan ishidan afsuslanishi mumkin.

Bundan tashqari, balog‘at davrida organizmda kechadigan gormonal o‘zgarishlar ham uning hissiy holatiga ta’sir qiladi. Kayfiyatning tez o‘zgarishi, ta’sirchanlik yoki ba’zan jizzakilik holatlari ko‘pincha shu jarayonning bir qismi hisoblanadi. Yana bir muhim jihat shundaki, bu davrda tengdoshlarining fikri o‘smir uchun juda katta ahamiyat kasb eta boshlaydi. U do‘stlari tomonidan qabul qilinishni, hurmat topishni va o‘z o‘rnini egallashni istaydi. Ota-onalar ba’zan: “Do‘stining gapini eshitadi, mening gapimni esa yo‘q”, deb o‘ylashlari mumkin. Bu ham rivojlanishning tabiiy bosqichlaridan biridir.

O‘smirlik davrida ota-onaning munosabati muhim ahamiyatga ega. Haddan tashqari nazorat, doimiy tanqid, boshqa bolalar bilan solishtirish yoki uning fikrini mensimaslik qarshilikni yanada kuchaytirishi mumkin. Chunki bu yoshda o‘smir hurmat qozonish va unga ishonishlarini xohlaydi. Bu, albatta, barcha istaklarini bajarish kerak, degani emas. O‘smirga ham aniq va izchil chegaralar zarur. Biroq bu chegaralar qo‘rqitish, baqirish yoki tahdid orqali emas, balki hurmat, muloqot va o‘zaro ishonch asosida qo‘yilganda samarali bo‘ladi. Ota-onaning vazifasi nazorat qilish emas, balki asta-sekin yo‘l ko‘rsatish va mustaqillikka tayyorlashdir.

Shuni unutmaslik kerakki, o‘smirlikdagi qaysarlik ko‘pincha ota-onaga qarshi turish emas, balki o‘z shaxsini topishga bo‘lgan ichki ehtiyojning ifodasidir. Bu davrni sabr, mehr va to‘g‘ri muloqot bilan yengib o‘tgan oilalarda o‘smir va ota-ona o‘rtasida ishonchli munosabat yanada mustahkamlanadi.

Muslima TO‘LQINBOYEVA

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 474
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 897
Lotin yozuvida – 11 577
Media kuzatuvchilar – 91 497
Buyurtma: G – 840
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov
Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:30

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI